

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASO OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MATEMATIKA FAKULTETI
INFORMATIKA KAFEDRASI

G.N.YUNUSOVA

**SOHADA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINING
QO'LLANILISHI**



NAMANGAN-2022

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'min, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil "___" Iyul dagi "314"-sonli buyrug'iga asosan

G.N.Yunusova

(muallifning familyasi, ismi-sharifi)

Filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)

(ta lim yo'naliishi (mutaxassisligi))

ning
talabalari (o'quvchilar) uchun tavsiya etilgan

Sohada axborot texnologiyalarini qo'llanilishi (Amaliy)

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv go'llanna)

mashq' uloti)

ga
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir



I.Abduraxmonov

Nº 314 - 581

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SOHADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy o'quv yurtlari filologiya va tillarni
o'qitish (tillar bo'yicha) yo'nalishi talabalari

uchun tavsiya etgan

O'QUV QO'LLANMA

60230100-filologiya va tillarni o'qitish (tillar bo'yicha)

Namangan - 2023

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma "Sohada axborot texnologiyalari" deb nomlanib, unda bo'lajak filologlarning engliz tili o'qitishda va o'rganishda, ta'lim resurslarini yaratishda axborot texnologiyalaridan, kompyuter dasturlaridan, Google, Microsoft, Smart texnologiyalaridan foydalananishning amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Mazkur o'quv qo'llanma 60230100- "Filologiya va tillarni o'qitish(tillar bo'yicha)" yo'nalishida o'qitiladigan "Sohada axborot texnologiyalari" nomli o'quv fanining o'quv fan dasturi mazmuniga mos qilib tayyorlangan bo'lib, fan o'qituvchilari va bakalavr ta'lim bosqichi talabalari, magistrlar, filologiya soha vakillari uchun keng foydalnishga mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие называется «Информационные технологии в сфере», и в нём рассматриваются практические аспекты использования информационных технологий, компьютерных программ, Google, Microsoft, SMART технологии в создании образовательных ресурсов при обучении и изучении английского языка будущими филологами для направлений 60230100-«Филология и преподавание языков (по языкам)». Учебное пособие подготовлено в соответствии с содержанием учебной программы предмета «Информационного Технологии в сфере», преподаваемый в изучении и обучении английского языка филологами с применением информационных технологий и предназначен для широкого использования учителями-предметниками и студентами бакалавриата, магистрантами.

ANNOTATION

This textbook is called "Information Technology in the Sphere", and it discusses the practical aspects of using information technology, computer programs, Google, Microsoft, SMART technologies in creating educational resources for teaching and learning English by future philologists for the directions 60230100-"Philology and teaching languages. The textbook has been prepared in accordance with the content of the curriculum of the subject "Information Technology in the field" taught in the study and teaching of English by philologists using information technology and is intended for widespread use by subject teachers and undergraduate students, undergraduates.

MUNDARIJA

1. Amaliy mashg'ulot №1.1. Mavzu: Zamonaviy o'quv-texnik vositalari tasnifi va ularning turlari.....	7-45
2. Amaliy mashg'ulot №2. Taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari.....	46-113
3. Amaliy mashg'ulot №3. CourseLab dasturi yordamida elektron darslik yaratish asoslarini o'rganish. iSpring Suite dasturlari yordamida multimediali elektron o'quv kurslarini yartish.....	114-125
4. Amaliy mashg'ulot №4. HotPotatoes dasturidan foydalanib mashq qiluvchini elektron kurslarini yaratish.....	125-137
5. Amaliy mashg'ulot №5. Bilimni baholash tizimlari bilan ishlash. MyTest dasturi.....	137-145
6. Amaliy mashg'ulot №5. O'quv animationsh roliklar tayyorlash dasturlari bilan ishlash.....	145-163
7. Amaliy mashg'ulot 6. Videomateriallarga ishlov berish	163-216
8 Amaliy mashg'ulot № 8. Google hujjatlar bilan ishlash xizmatlari.....	216-222
9. Amaliy mashg'ulot №9. Google Classroom web-hizmatidan foydalanib masofaviy o'quv kursini yaratish. Elektron doskalar uchun interfaol taqdimotlar yaratish.....	222-234
10. Amaliy mashg'ulot №10. LMS maqsad va tuzilmasi.....	234-256
11. Amaliy mashg'ulot №11. LMS Moodledan o'quv kontentlarini tayyorlash va nashr etishda foydalanish	256-263
12. Amaliy mashg'ulot № 12. LMS Moodleda muloqot va ma'lumot almashinushi.....	264-269
13. Amaliy mashg'ulot № 13. Smart elektron o'quv qo'llanmalariga o'qitishga qo'llash.....	269-272
14. Amaliy mashg'ulot №14. O'qitishda onlayn Smart texnologiyalaridan foydalanish.....	272-277
15. Amaliy mashg'ulot № 15. Webinar va Zoom platformalarida ishlash asoslari.....	277-314

СОДЕРЖАНИЕ

1. Практическое занятие №1. Тема: Характеристика современных учебно-технических средств и их виды.....	7-45
2. Практическое занятие №2. Современные средства создания презентаций.....	46-113
3. Практическое занятие №3. Изучение основ создания электронного учебника с помощью программы CourseLab. Создание мультимедийных электронных курсов с использованием программы iSpring Suite..	114-125
4. Практическое упражнение №4. Создание обучающих практических электронных курсов, используя программу HotPotatoes.....	125-137
5. Практическое упражнение №5.1.. Работа с системами оценки знаний. Программа MyTest.....	137-145
6. Практическое упражнение №6. Работа с программами для подготовки учебных анимационных роликов.....	145-163
7. Практические занятие №7.Обработка видеоматериалов.....	163-216
8. Практическое занятие №8. Услуги работы с документами Google.....	216-222
9. Практическое упражнение №9. Создание курса дистанционного обучения с помощью веб-сервиса Google Classroom. Создание интерактивных презентаций для электронных досок.....	222-234
10.Практическое упражнение №10.Цель и структура .LMS.....	234-256
11. Практическое упражнение №11. Использование LMS Moodle в подготовке и публикации образовательного контента.....	256-263
12.Практическое занятие № 12. Общение и обмен информацией в LMS Moodle.....	264-269
13.Практическое занятие № 13. Применение интеллектуальных электронных учебных пособий в обучении.....	269-272
14.Практическое занятие №14. Использование онлайн-технологий Smart в обучении.....	272-277
15.Практическое занятие № 15. Основы работы на платформах Webinar и Zoom.....	277-314

CONTENTS

1. Practical exercise № 1. Topic: Characteristics of modern educational and technical means and their types	7-45
2. Practical exercise № 2. Modern tools of creating a presentation	46-113
3. Practical exercise №3. Learning the basics of creating an electronic textbook using the CourseLab program. Creation of multimedia e-learning courses using iSpring Suite	114-125
4. Practical exercise №4. Creation of practical e-learning courses using the HotPotatoes program.....	125-137
5. Practical exercise №5. Working with knowledge assessment systems. Program MyTest.	137-145
6.Practical exercise № 6. Working with programs for preparing educational animated rolrics.....	145-163
7. Practical exercise № 7. Processing of video materials.....	163-216
8. Practical exercise № 8. Working with Google Docs.....	216-222
9. Practical exercise № 9. Create a distance learning course using the Google Classroom web service. Creating interactive presentations for white boards.....	222-234
10. Practical exercise № 10. Purpose and structure of .LMS.....	234-256
11. Practical exercise №11. Using LMS Moodle in the preparation and publication of educational content.....	256-263
12. Practical exercise №12. Communication and information exchange in LMS Moodle.....	264-269
13. Practical exercise №13. The use of intelligent electronic textbooks in training.....	269-272
14. Practical exercise №14. Use of Smart online technologies in education.....	272-277
15. Practical exercise №15. Basics of working on the Webinar and Zoom platforms.....	277-314

AMALIY MASHG'ULOT №1

Mavzu: Zamnaviy o'quv-texnik vositalari tasnifi va ularning turlari.

Kalit so'zlar: Zamnaviy o'quv-texnik vositalar, elektron doska, smartfon, planshet, iPad, iPhone, ID Board elektron doska va boshqalar.

Amaliy mashg'ulotning texnik ta'minoti: videoproektor, kompyuter Pentium-4, audio-video tasvirlar, plakatlar, videolavhalar, keng formatli plakatlar va kartochkalar.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga zamnaviy o'quv-texnik vopsitalarni tasnifi va ularda samarali ishlash vazifalarini o'rgatishdan iborat.

Talabalarni zamnaviy o'quv-tehnik vositalar: videoproektor, multiproektor, elektron doska, zamnaviy kompyuter va uning asosiy hamda qo'shimcha qurilmalari, modem, scaner, planshet, noutbuk, kolonka, rezograph, nurli pero, videoekran, videoblaster, onlayn konferensiya o'tkazishga oid tehnik vositalar, grafoqurilma(grafopostroitel) va boshqalar haqida tushuncha berish va tushunchalarini internetda o'qib o'rghanish orqali to'ldirish.

Amaliy mashg'ulotning nazariy bayoni:

Zamnaviy o'quv texnik vositalarga multiproyektor, videoproyektor, elektron doska, kompyuter sinfigagi texnik vositalar, kolonkalar, videoglaz, mikrofon, elektron doska, Smartphonlar, mobil telefonlar kiradi. Dasttlar dasturiy vositalarga kiradi. Ularning xar birining tasnifi va ishlatish prinsipi, qoidasi bo'ladi. Videoproektor protsessor bilan o'zini ulab, ekranda flesh xotiradagi ma'lumotlarni chiqarishga mo'ljallangan qurilma. Videoproyektoring zamnaviy rusumi-multiproyektor bo'lib, u elektron doska va uning ekranli bilan bog'liq holda ishlaydi. Zamnaviy rusumdagagi kompyuterlar sensorli. Sichqoncha ham sensorli. Bu zamnaviy texnik qurilmalar. Zamnaviy klaviaturalar sensorli, ular inson barmog'i uchlarida ishlaydi. Kompyuter sinflari kompyuterlar bilan jihozlangan, kolonkalar, videoglaz, sensorli elektron doska, Smart televizor, printer, skaner, modem va boshqa qurilmalar bilan ta'minlangan. Zamnaviy mobil telefonlar, iPad, iPhone rusumli planshetlar, smartfonlar hamda noutbuk, netbuklar,

Traceboard uch qalamli hamda sensorli elektron doskalar kiradi. Zamonaviy o'quv texnik vositalarga kompyuterlar ham kiradi. Ularning sensorli ekrani ko'tinislari, sensorli sichqonchali va sensorli klaviaturali rusumlari mavjud. Shunday ekan, uning ham asosiy va qushimcha qurilmalarini bilishimiz zarur:

Shaxsiy komp'yuter tuzilishining axboriy- mantiqiy asoslari

1945 yilda birinchi kompyuterlar yaratilayotgan vaqtida taniqli amerikalik matematik Djon fon Neyman kompyuterning axborotni qayta ishlovchi universal va samarali qurilma bo'lishi uchun qanday qismlardan iborat bo'lishi kerakligini yozgan. Bu kompyuter qurilmasining asoslari *fon Neyman prinsiplari* deyiladi.

Avvalambor fon Neyman prinsiplariga asosan kompyuter qo'yidagi qurilmalarga ega bo'lishi kerak:


Arifmetik-mantiqiy qurilma. Arifmetik-mantiqiy amallarni bajarish uchun;

Dasturlarni bajarilishini tashkil etuvchi boshqarish qurilmasi;

Dasturlar va ma'lumotlarni saqlash uchun xotira;

Axborotlarni kiritish va chiqarish uchun tashqi qurilma.

Kompyuter xotirasi raqamlangan bir qancha katakchalardan iborat bo'lib, ularning har birida qayta ishlanayotgan ma'lumot yoki dasturlarning instruktsiyalari joylashgan bo'lishi mumkin. Xotiraning barcha katakchalari kompyuterning boshqa qurilmalari uchun ham qulay bo'lishi zarur. Qo'yidagi rasmda komp yuter arxiteturasi ya'ni qurilmalari o'rtaqidagi bog'liqlik ko'rsatilgan (bitta chiziq boshqarish aloqalarini, ikkita chiziq – axborotli aloqani bildiradi): 1-Rasm.



1-Rasm. Komp yuter arxiteturasi.

2. Kompyuter haqida umumiy ma'lumot

Kompyuter(inglizcha so'zdan olingan bo'lib – “hisoblovchi” ma’nosini bildiradi) – programmalashtirilgan axborotlarni qayta ishlovchi universal raqamli hisoblash mashinasidir. U hozirda faqat hisoblovchi bo’lmasdan, matnlar, tovush, video va boshqa ma'lumotlar ustida ham amallar bajaradi. Shunga qaramasdan hozirda uning eski nomi – kompyuter saqlangan. Uning asosiy vazifasi turli ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Avallo shuni aytish lozimki, ko'pchilikning tushunchasida go'yoki biz kundalikda foydalanadigan faqat shaxsiy kompyuter bor xolos. Bunga albatta sabablar ko'p. Shulardan biri hozirgi zamon shaxsiy kompyuterlar ilgari universal deb hisoblangan kompyuterlardan tezligi va xotira hajmi jihatidan ancha oshib ketganligida bo'lsa, ikkinchi tomonidan ko'p masalalarni yechish uchun bu kompyuterlar foydalanuvchilarni qanoatlantirishidadir. Hozirda kompyuter atamasi ko'p uchrasada, shu bilan birga EHM (elektron hisoblash mashinalari), HM (hisoblash mashinalari) atamalari ham hayotda ko'p ishlatib turiladi. Ammo biz soddalik uchun faqat kompyuter atamasidan foydalanamiz. Kompyuterlarning amalda turli xillari mavjud: raqamli, analogli(uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtirilgan. Ammo, raqamli kompyuterlar foydalanilishi, bajaradigan amallarning universalligi, hisoblash amallarining aniqligi va boshqa ko'rsatkichlari yuqori bo'lgani uchun, ular ko'proq foydalanimoqda. Amalda esa hozir rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlarning besh guruhi keng qo'llanimoqda.

Kompyuterlarni sinflash

Kompyuterlarni xotirasining hajmi, takt chastotasi(bir sekundda bajaradigan amallar tezligi), ma'lumotlarning razryad to'rida (yacheykalarda) tasvirlanishiga qarab, besh guruhga bo'lish mumkin:

- super kompyuterlar;
- katta kompyuterlar;
- mini kompyuterlar;
- mikro kompyuterlar(shaxsiy kompyuterlar);
- bloknot va cho'ntak kompyuterlari (noutbuk, la'ptop', 'almto'),

Super kompyuterlar (top 500 kompyuterlar) - juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bunday masalalar sifatida ob-havoni global, bashoratiga oid masalalarni, uch o'lchovli fazoda turli oqimlarning kechishini o'rganish masalalari, global informatsion tizimlar va hokazolarni keltirish mumkin. Bu kompyuterlar bir sekundda 10 trilliardlab amal bajaradi. Misol sifatida AQSh energetika vazirligining Sandia laboratoriyasida o'matilgan 9472 protsessorli Intel ASCI Red kompyuterini keltirish mumkin. Xususan, bu kompyuter yadro sinovlarini va eskirayotgan yadro qurollarini modellashtirishda qo'llaniladi.

Katta kompyuterlar (Mainframe Computer) - fan va texnikaning turli sohalariga oid masalalarni yechishga mo'ljallangan. Ularning amal bajarish tezligi va xotira hajmi superkompyuterlarnikiga qaraganda bir-ikki pog'ona past. Bularga misol sifatida AQShning CRAY (krey), IBM 390, 4300, IBM ES/ 9000, Fransiyaning Borrous 6000, Yaponiyaning M1800 rusumli kompyuterini va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Minikompyuterlar (kichik kompyuterlar) hajmi va bajaradigan amallar tezligi jihatidan katta kompyuterlardan kamida bir pog'ona pastdir. Shuni aytish joizki, ularning gabariti (hajmi) tobora ihchamlashib, hatto shaxsiy kompyuterdek kichik joyni egallaydiganlari yaratilmoqda. Bunday kompyuterlar turkumiga ilk bor yaratilgan 'D'-11 (Programm Driver processor - dasturiy boshqaruvi prosessori) turkumini, ilgari harbiy maqsadlar uchun ishlatalgan (maxfiy hisoblangan) VAX, SUN turkumli kompyuterlar, IBM 4381, hewlett packard firmasining hP 9000 va boshqalar minikompyuterga misol bo'la oladi. Shuni aytish joizki, minikompyuterlar o'zlarining «katta og'alari» Mainframe kompyuterlarni imkoniyatlari darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Shaxsiy kompyuterlar hozirda korxonalar, muassasalar, oliy o'quv yurtlarida keng tarqalgan bo'lib, ularning aksariyati IBM rusumiga mos kompyuterlardir. 2-Rasm.



Bugungi kunda pentium IV kompyuterlari ham jahon bozorida keng tarqalmoqda. IBM PC moslik kompyuterlarini yuzlab firmalar ishlab chiqarmoqda. Bular IBM, Compaq, hewlett-packard, packard Bell, Toshiba, Appsle, Siemens Nixdors, Acer, Olivetti, Gateway, SUN va boshqa firmalardir. shuni aytish joizki, yuqorida nomlari zikr etilgan firmalar ishlab chiqargan kompyuterlar (bradename) - «Oq yasalgan», Janubiy-sharqiy mamlakatlarda: Malayziya, Xitoy, Tailand, Koreya va boshqa mamalakatlarda yuqorida nomlari keltirilgan firmalar litsenziysi asosida ishlab chiqarilgan kompyuterlar «Sariq yasalgan» nomga ega. Firma nomlari ko'rsatilmagan kompyuterlar esa «nomsiz kompyuterlar» (noname)deb yuritiladi. 3-Rasm.



Noutbuk kompyuterlar(yozuv kitobchasi). Noutbuk kompyuterlar hajmi ancha ixcham bo'lib, ammo bajaradigan amallar soni, xotira hajmi shaxsiy kompyuterlar darajasiga ko'tarilib bormoqda. Ularning qulaylik tomonlaridan biri ham elektr energiyasidan va ichiga o'rnatilgan batareyalarda ham uzlusiz (batareyani har safar almashtirmsandan) ishlash mumkinligidir.

Bunda batareya quvvati energiyaga ulanishi bilan o'zi zaryad ola boshlaydi va u batareya bir necha yillarga mo'ljallangan bo'ladi. Hozirda bunday noutbuklarni IBM, Compaq, Acer, Toshiba va boshqa firmalar ishlab chiqarmoqda. Tabiiyki, bunday kompyuterlar o'z imkoniyatlari nuqtai nazaridan shaxsiy kompyuterlarga tenglashayotganini nazarda tutilsa, uning narxi baland bo'lishini sezish qiyin emas. Bundan tashqari, bunday rusumli kompyuterlar 8-10 yil mobaynida buzilmasdan ishlash qobiliyatiga ega. Ular shaxsiy kompyuterlar uchun yaratilgan amaliyot tizimlar MS DOS, qobiq dasturlar, Windows ning oxirgi lahzalarida va boshqa amaliyot tizimlar boshqaruvida ishlaydi.

Hozirda noutbuk kompyuterlaridan ham ixcham cho'ntak kompyuter (la'ptop)lari ham ishlab chiqilmoqda. Ular ham tabiiyki, amaliyot tizimi boshqaruvida ishlaydi va ular turli soha masalalarini yechishga qodir.

la'ptop kompyuterlari. Tizzada ishlatib o'tirishga qulay va yengilligi bilan nootebook kompyuterlaridan farq qiladi [1,2,3,].¹

Kompyuterning ishlash prinsipi va tashkil etuvchilarini

Ixtiyoriy kompyuterning ishlash prinsipini birinchi bo'lib ingliz olimi Charlg'z Bebidj va uning g'oyasini mukammallashgan ko'rinishini Djon Fon Neyman taklif qilgan. Uning prinsipi dastur asosida boshqariladigan avtomatik ravishda ketma-ket ishlash g'oyasidan iborat. Hozirda ko'p rusumli kompyuterlar shu g'oya asosida ishlaydi. Lekin keyingi paytlarda ko'p protsessorli kompyuterlar, ya'ni bir vaqtida dasturning bo'laklarini ketma-ket emas, parallel bajaradigan kompyuterlar ham yaratilganligini eslatib o'tish joizdir. Shunday qilib, kompyuter avvaldan tuzilgan dastur asosida ishlaydi. O'z navbatida dastur qo'yilgan masalani kompyuterda yechish uchun qandaydir dasturlash tilida yozilgan buyruqlar (operatorlar) ketma-ketligidir. Dasturlash tilida tuzilgan dasturlar maxsus tarjimon dasturlar yordamida kompyuter tiliga o'tkaziladi. Kompyuter tili 0 va 1 lardan tashkil topgan, ma'lum qoidalar asosida yoziladigan ketma-ketliklardan iborat. Djon Fon Neyman prinsipi bo'yicha avtomatik ravishda bajariladigan dastur avval kompyuterning xotirasiga kiritiladi (yuklanadi). Xotirada turgan dastur asosida dasturni tashkil etuvchi har bir operator ketma-ket bajariladi.

Boshqaruv qurilmasi deb ataluvchi maxsus qurilma hozir qanday operator bajarilishi va undan keyin qaysi operator bajarilishi ustidan nazorat o'matadi va uni bajarilishini ta'minlaydi. Amal (arifmetik-mantiqiy) esa protsessor deb ataluvchi qurilmada bajariladi. Dastur ishlash natijasi to'g'ridan-to'g'ri ekranda yoki tashqi qurilma (chop qiluvchi mexanizm, grafik chizuvchi qurilma, video qurilma va boshqalar) deb ataluvchi qurilmada ko'riliishi mumkin. Odatda kompyuter ikki qismdan: hardware (kompyuterni tashkil etuvchilarini -

¹ M.Aripov, A. Xaydarov, N. Muxitdinova. Algoritm asoslari va algoritmik tillar (ma'ruzalar matni). Toshkent,2000.

kompyuterning qattiq qismlari) va Software (kompyuterning dasturiy tahminoti - kompyuterning yumshoq qismlaridan) tashkil topgan deyiladi.

SHAXSIY KOMPYUTERLARNING TUZILISHI

shaxsiy kompyuterlar qo'yidagi asosiy qurilmalardan tashkil topgan:

- tizim bloki;
- monitor;
- klaviatura;
- sichqoncha.

IBM firmasiga taalluqli shaxsiy kompyuterlar, inglizcha IBM PC kompyuterlari atamasida yuritiladi va ular hozirgi kunda eng keng tarqalgandir.

TIZIMLI BLOKI

Tizimli bloki odatda desktop (yassi) yoki town (minora) ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Kompyuterning asosiy qismlari tizimli blokida joylashgan bo'lib, ular qo'yidagilardir (4-Rasm):



Tezkor xotira (RAM-Random Access Memory-ixtiyoriy kirish mumkin bo'lган) mikroprotsessor, qurilmalar nazoratchilari, (yahni kontrollerlar, adapterlar, elektr manbai bilan tahminlash bloki), yumshoq disk yurituvchi qurilmasi (FDD-Floppy Disk Driver), qattiq disk yurituvchi qurilmasi (hDD-hard Disk Driver), faqat o'qish uchun mo'ljallangan (CD ROM-Compact Disk Read Only Memory) yoki uning o'rniga hozirda ham o'qish ham yozish uchun hizmat qiladigan lazer disk yurituvchi qurilmasi (CD RW yoki DVD RW) bo'lishi ham mumkin, shinalar, modem va boshqa qurilmalar. Tizim blokiga uning parallel (LPT) va ketma-ket (COM) portlari orqali ko'plab tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Mikroprotsessor. Mikroprotsessor kompyuterning amal bajaradigan qismi bo'lib, u ma'lumotlarni berilgan dastur asosida qayta ishlaydi.

Mikroprotsessor 140 ta atrofida turli arifmetik va mantiqiy amallarni bajaradi. IBM rusumli kompyuterlarda Intel tipidagi (shu nomli firma ishlab chiqqan) mikroprotsessorlar ishlatalidi. Bu firma o'z faoliyati mobaynida Intel-

8080, 80286, 80386, 80486, pentium, pentium pro (professional) mikroprotssorlarni ishlab chiqargan bo'lib, hozirda faqat zamon talablariga javob beradigan pentium-IV protsessorlarini bozorga chiqarmoqda. Shuni aytish joyizki, bu protsessorlar faqat Intel firmasida ishlab chiqarilishi shart emas. Uning litsenziyasi asosida bunday mikroprotssorlar, ishchi kuchi arzon bo'lgan, Janubiy- sharqi Osiyo mamlakatlarida ko'plab ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari, *IBM kompyuterlariga moslik* shartini bajaradigan boshqa firmalar: AMD, Cyrix, Celeron va hokazo ishlab chiqqan mikroprotssorlar ham keng qo'llaniladi. Ammo boshqa firmalar ishlab chiqqan mikroprotssorlar Intel-protsessorlardan umuman aytganda kuchsizroq hisoblanadi. Hozirda MMX-protsessorli kompyuterlar keng qo'llaniladi. Protsessorlarning tezligi megagertslar (Mgts) sekundda o'chanadi².

MMX pentium protsessori. Intel firmasining keyingi avlod protsessori sifatida 1997 yil yanvar oyidan boshlab chiqarilayotgan MMX (Matrix Multiplication Extension) pentium protsessorini aytish mumkin. Dastavval bu protsessor matrisalarni ko'paytirish uchun kengaytma nomi bilan atalgan bo'lsa, keyinchalik MultiMedia Yextension-multimedia uchun kengaytma deb atala boshladi. Bu yangi protsessorni ishlab chiqishdan maqsad, keyingi yillarda ommaviy qo'llanilib borilayotgan kompyuterning multimedia (ovozi, grafik, tasvir) imkoniyatlarni har tomonlama barkamollik darajasiga ko'tarish multimedia amaliyotlarni tez bajarishni taxminlashdan iborat. Bu amallar qatoriga, jumladan multimedia berilganlarini, ikki va uch o'lchovli grafikalarni tez bajarish kiradi. Shu bilan birga bu protsessor ko'paytirish va qo'shish amallarini ko'proq ishlata digan amaliy dasturlarda amallarni tezroq bajarishga qaratilgan. Shuning uchun ham uni ko'proq matematik soprotsessorni talab qilmaydigan, butun sonlar bilan ishslash bilan bog'liq masalalarini yechishda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lsada, tajribalar uning har tomonlama ustunligini ko'rsatadi.

² M.Aripov . Informatika va xisoblash texnikasi asoslari buyicha inglizcha kiskartmalarning inglizcha-ruscha-uzbekcha lugati.Universitet nashriyoti., 2001.

Monitor

Monitor (display) kompyuterda matn va grafik ma'lumotlarni tasvirlash (ko'rish) uchun xizmat qiladi. Uning elektron-nurli (SRT - Cathode Ray Tube) va suyuq kristalli (jidkokristallicheskoe yoki LCD - Liquid Crystal Display) ko'rinishlari mavjud. Garchand tashqi ko'rinishidan u televizorga o'xshab ketsada, ular bajaradigan ishlari bilan keskin farq qiladilar. 5-Rasm.



Monitorlar rangli va rangsiz bo'ladi. Kompyuter tarqatadigan nur umuman aytganda zararli, shuning uchun ham ba'zi kompyuterlarda past radiatsiya (Lowe radiation) so'zlarini uchratish mumkin. Lekin ularning inson organizmiga ta'siri tobora kamayib boradigan rusumlari yaratilmoqda. Buning misoli keyingi yillarda chiqarilgan 17-21 dyuymli SVGA (SUPER Video Grafic Adapter-katta video grafik adapter) monitorlarda nurlarning ta'sirini ancha kamaytirilishiga erishilganligini keltirish mumkin. Monitor asosiy tavsiflaridan biri uning tasvirlash qobiliyatidir. Tasvirlash qobiliyati ekranning gorizontali va vertikalidagi nuqtalar soni bilan beriladi. Masalan 14 dyuymli (36.56 sm) monitorda tasvirlash qobiliyati 800x600, 15 dyuymli (38.1 sm) monitorda 1024x768, 17 dyuymli (43.2 sm) monitorda 1280x1024 va 21 dyuymli (53.54 sm) monitorda esa 1600x1200. Bundan tashqari, monitoring yana bir tavsifi tasvirlarni hosil qiluvchi piksellar (nuqtalar) o'lchovining katta-kichikligidir. Tasvirlash qobiliyati 800x600 ga teng bo'lgan monitorlarda yaxshi tasvir piksel 0,31mm ga, 1024x768ga teng bo'lgan monitorlarda esa piksel 0,28 yoki 0,25ga teng bo'lishi kerak. Monitoring tez ishlashi uning adapteriga bog'liq bo'ladi. Matn holatida monitorlar nisbatan tez ishlasada, grafik holatda u sekinroq ishlaydi. Uning tezligini oshirish yo'llari ham mavjud.

Hozirda monitorlarning suyuq kristalli (jidkokristallicheskoe yoki LCD) ko'rinishdagilari keng tarqalmoqda. Bunga sabab uning zararli nur tarqatib inson ko'ziga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi xamda kam energiya sarsfidir. Bundan tashqari bunday monitorlar satxi o'ta tekis bo'lib, unda tasvirlar buzilmasdan ko'rinaldi.

Shuningdek hozirda plazmali monitorlar ham ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. U ichi inert gazi bilan to'ldirilgan, sathi tekis shisha idish shaklida bo'lib ichki sathida esa minglab mayda elektrodlar joylashtiriladi. Har bir elektrod esa monitor ekranining bitta pikselini tashkil etadi. U ham inson uchun zararli bo'lgan nur tarqatmaydi. Suyuq kristalli monitorlardan farqi uning katta dioganalli ko'rinishlarini ham yaratish imkoniyati mavjud.

SICHQONCHA

Sichqoncha ma'lumotlarni kompyuterga kiritish va u bilan muloqot qilish vazifasini tezroq amalga oshirishni taxminlaydigan qurilmadir 6-Rasm. Usiz kompyuterda xususan, amaliyot tizimida ishlab bo'lmaydi. U yordamida amaliyot tizimga va uning boshqaruvi ostida ishlaydigan dasturlarga buyruqlar kiritiladi. Sichqoncha odatda ikki yoki uch tugmaali bo'ladi: chap, o'ng va o'rta yoki g'ildirakchali. Chap va o'ng tugmaalar dastur asosida almashtirilishi mumkin. Odatda chap tugmaa yordamida asosiy amallar (ajratish, surish, bajarish va h.k.) bajariladi. O'ng tugmaa kontekst tavsiyanoma deb ataluvchi oynadagi amallarni bajarish uchun xizmat qiladi. Kontekst tavsiyanomaning vazifasi joriy holatda u yoki bu amalni tezroq bajarish bilan bog'liq. O'rta tugmaa yoki g'ildirakcha hozirda xususan, varaqlash (Page Down, Page Up amaliga o'xshab) maqsadlari uchun qulay.

Sichqoncha birinchi navbatda ko'rsatish vazifasini bajaradi. Agarda biror ob'ekt ko'rsatgandan keyin, chap tugmaacha bosilsa, o'sha ob'ekt ishlash uchun tayyor bo'lib turadi. Ko'rsatilgan ob'ekt ustida, sichqonchaning chap tugmaasi ikki marta bosilsa, ko'rsatilgan ob'ekt ishga tushib ketadi. Sichqonchaning chap tugmaasini ikki marta ketma-ket bosish operasiyasi, bu operasiyani bir marta chap tugmaani bosib, keyin Enter bosilganiga teng bo'ladi³.

Ekranda ko'rsatilgan ob'ektni surish yoki ko'chirish uchun, sichqoncha

³ M.Payk, D.Gibbons,D.Foks,A.Vestenburg ,D. Kreven. Internet (entsiklopediya, rus tilida),S.-Peterburg, 1996,635b

ko'rsatkichini ko'rsatilgan ob'ekt ustiga keltirilib, sichqonchaning chap tugmaasi bosiladi va tugmaani qo'yib yubormasdan, ob'ektni yangi joyga suriladi va sichqoncha tugmaasi qo'yib yuboriladi. Windows muhitida ishlayotganda ekrandagi ob'ektlarni sichqonchaning ham chap, ham o'ng tomonda joylashgan tugmaalar bilan ko'chirish mumkin.

Klaviatura

Klaviatura matnli ma'lumotlarni kompyuterga qo'lda kiritadigan va u bilan muloqot qilish vazifasini o'taydigan qurilmadir. Uning yordamida amaliyot tizimiga va uning boshqaruvi ostida ishlaydigan dasturlarga buyruqlar va dasturlarga kerak bo'lgan ma'lumotlar kiritiladi. 7-Rasm.



Windows tizimida oson ishlashni yo'lga qo'yish uchun yaratilgan klaviaturalar odatda 101, 104, 108 yoki 109 tugmalardan iborat bo'ladi.

O'z vazifalariga ko'ra tugmalar beshta guruhga bo'linadi:

- Alifbo harflari va sonlami kiritadigan tugmalar.
- Kursomi boshqarish tugmalari.
- Funksional tugmalar.
- Sonlarni kiritadigan aloxida tugmalar.
- Xizmatchi tugmalar.

Eng katta guruh - birinchi guruh bo'lib, ular yordamida rus va lotin kattakichik harflari, sonlar, maxsus belgilar, tinish belgilari kompyuterga kiritiladi. Pastda joylashgan uzun, hech qanaqa belgisi bo'limgan tugmaning nomi Spacerbar yoki Space deb ataladi va bo'sh joy belgisini kiritishga mo'ljallangandir. Boshqa tugmalar bir necha nomga ega, chunki ular klaviaturaning ish tartibiga (registriga) qarab turli belgilarni kiritishga mo'ljallangan.

Pastki registrda kichik yuqori registrda esa katta harflar kiritiladi⁴.

Ekranga belgi tushadigan joy maxsus usul bilan belgilanadi. Buning uchun

⁴ A.Sh. Daliev, B.J. Boltaev, M. Maxkamov. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. II- sinf uchun kullanma. Toshkent 1999.

maxsus belgi bor, u kursor deb ataladi. Agar ekran matn kiritish holatida ishlab turgan bo'lsa, unda kursor o'chib-yonib turadigan vertikal chiziqcha yoki harfning ustiga tushadigan to'rtburchakka o'xshaydi va matn kursori deb nomlanadi.

Agarda ekran grafik holatda ishlab turgan bo'lsa, unda kursor yonib-o'chib turadigan gorizontal chiziqchaga o'xshaydi. Xullas kursor ko'rinishi holatga qarab o'zgaradi.

Kursorni boshqarish tugmalari ←, →, ↑, ↓ home, End, PageUp, PageDown, BackSpace va Enterlardan iborat bo'lib, ular matn ko'rsatkichini joyini o'zgartirishga yordam beradi

F1 dan F12 gacha bo'lgan tugmalar funksional tugmalar deb nomlanadi. Dastur tuzilishiga qarab, ushbu tugmalar har xil vazifalarni bajarishi mumkin. Bular 12 ta bo'lishiga qaramasdan, ko'pincha F1 dan F10 gachasi ishlataladi. Odatda F1 tugmasi yordamchi ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladi (Spravochnik).

Num Lock (sonlarni saqlash) - sonlar kiritishning kichik klaviaturasi sonni kiritishga yoki kursorni boshqarishga moslaydi. Sonlarni kiritish tugmalari ikki holatda ishlashi mumkin:

- sonlarni kiritganda,
- kursorni boshqarishda.

Ikki holatning biridan ikkinchisiga o'tishni Num Lock (mahkamlash bilan) yoki shift tugmai (mahkamlash kerak emas) bajaradi. Bunda Caps Lock tugmai sonlarni kiritish klaviaturasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Sonlarni kiritish paytida sonlarni kiritish klaviaturasi kalkulyatorning klaviaturasiga o'xshaydi. Sonlarni va arifmetik amallar belgilarini kiritish uchun qulaylik yaratadi. Sonlarni kiritgan paytda Num Lock chirog'i yonib turishi kerak, agarda Num Lockni ko'rsatuvchi chiroq o'chgan bo'lsa, ushbu kichik klaviatura bilan matn kursorini boshqarish mumkin.

Hizmatchi tugmaalarga qo'yidagilar kiradi:

Ctrl (*Control* - boshqarish) - boshqa tugma bilan birga bosilganda, o'sha tugmaning vazifasi o'zgaradi.

ALT (Alternative - o'zgartiruvchi) - bu tugma ham boshqa tugmalar bilan birga bosilganda, o'sha tugmaning ish vazifasini o'zgartiradi.

Print Screen (ekrandagini chop etish) - ushbu tugma ekranda bo'lgan ma'lumotni printerga chiqarib beradi yoki bufer xotiraga joylaydi.

PAUSE (vaqtinchalik to'xtash) - ushbu tugma bosilganda kompyuter o'z ishini vaqtincha to'xtatadi.

TAB (tabulyatsiya) - faqat pastdagi registrda ishlaydi va gap matn, hujjatlar haqida ketganda, kursorni o'ng tomonga, navbatdagi maxsus ko'rsatilgan (belgilangan) nuqtaga (pozisiyaga) suradi. Bu tugmaning qulayligi shundaki, uning yordami bilan jadvallar tuzish oson va matnni yozganda ham belgilangan pozitsiyadan boshlab terish mumkin. Tugmalarni yuqori registrda bosganda, kursorni chap tomonga, belgilangan pozisiyaga surish mumkin.

Caps Lock (katta yoki kichik harflarga o'tish tugmasi) - yuqori registrga o'tish imkonini yaratib beradi. Haqiqatdan esa ushbu tugma faqat harflar terish tugmalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, katta harflar kiritish imkonini yaratib beradi. Bu tugmani bosib ushlab turish kerak emas. Ishlovchiga qulaylik yaratish maqsadida klaviaturaning o'ng burchagida yonib turadigan indikatorlar joylashgan. Bu indikatorlar holatni ko'p vaqt davomida saqlab turadigan tugmalar bilan bog'langan. Shularning ichida bittasi Caps Lockka tegishli.

Scroll Lock (surishni saqlaydi) - bu tugma yordamida kursorni harakatga keltirmoqchi bo'lsangiz, cursor ekranga sakraydi. Bu tugma ham o'z holatini mustahkamlash (fiksatsiya) bilan bajaradi.

Shift (surish) - vaqtinchalik yuqori registrdan pastki registrga, yoki aksincha, pastki registrdan yuqori registrga o'tish imkonini beradi. Hammasi Caps Lock tugmaining holati bilan bog'langan. Bu tugmaning xizmati vaqtinchalik bo'lganligi sababli, boshqa tugmalarning xizmatini o'zgartirish kerak bo'lsa, ularni bosish paytida shift tugmasi vaqtinchalik bosib ushlab turiladi.

Esc (bekor qilish) – bu tugma ayrim buyruqlarni bekor qilish uchun ishlataladi.

Yordamchi qurilmalar

Bundan tashqari har bir shaxsiy kompyuterga tashqi qurilmalar deb ataluvchi vositalarni ham ulash imkonini mavjud bo'lib ularidan ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Printer. Printerlar kompyuterda olingan natijalarni, dastur va berilganlarni bosmaga chiqarish uchun ishlataladi. Printer yordamida matnlarni, grafiklarni, rasmlarni rangli va rangsiz ko'rinishda bosmaga chiqarish mumkin. Printerlar asosan uch xil bo'ladi: *matritsali, oqimli va laserli*.

Matrisali printerlar nuqtalar yordamida bosmaga chiqaradi. Shuning uchun ham ularni nuqta-matrisali printerlar deb ham atashadi. Bunday printerlar nisbatan sekin ishlaydi, chop qilish sifati uncha yaxshi emas va chop qilish tezligi ham katta emas. Ular keng (A3) va oddiy (A4) chop etish formatiga ega. 24, 48 ignali (nuqtali) printerlar mavjud bo'lib, albatta ignalar soni ko'pligi yaxshi ekanligi tushunarlidir.

Oqimli printerlar. Bunday printerlar maxsus (rangli va rangsiz) siyohlarni purkash yo'li bilan ishlaganini uchun ular oqimli deb ataladi. Bu printerlarning turli ranglarda chop qilish sifati tiniq va ravshan bo'lib, ularning-kamchiligi siyohining tez tamom bo'lib qolishi va uning nozikligidir. Bu printerlar matnlarni nisbatan tez, grafik tasvirlarni esa sekinoq chop etadi.


Lazer printerlar. Lazer printerlar ham sifati, ham tezligi jihatidan eng yaxshi printer hisoblanadi. Ular rangli va rangsiz bo'ladi. 8-Rasm.



Bunday printerlarning andozasi sifatida HEWLETT-PACKARD (HP) firmasi chiqaradigan HP LaserJet rusumli printerlar qabul qilingan. Lazer printerlarda chop etish juda qulay bo'lib, u tez (minutiga 8-15 hatto 40 varaqqa) chop etishi mumkin. Ammo tabiiyki, bunday printerlarning narxlari nisbatan balandroqdir. Uning bir kamchiligi - unda ishlataladigan toner rang va katrejning tez almashtirib turilishidadir. Uning bir toneri taxminan 1500-2500 varaqqa yetadi. Albatta bu raqam tejab ishlatalishga bog'liq albatta. Shuning uchun lazer printerda chiqarilgan nusxani kseroks orqali ko'paytirish maqsadga muvosifiqdir.

Modem. Modem modulyatsiya, demodulyatsiya so'zlaridan olingen bo'lib, uzlusiz signallarni raqamli (modulyatsiya) va raqamli ma'lumotlarni uzlusiz (demodulyatsiya) signalga almashtirib beradigan qurilmadir. Uning asosiy vazifasi kompyuterlararo aloqani o'rnatishdir. U o'zining kommunikatsion dasturlariga ega bo'lib, bu dasturlar yordamida uzoq masofalarga ma'lumotlarni uzatishi va qabul qilishi mumkin. Modem ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Hozirda ko'p kompyuterlar modem bilan birga sotilmoqda.

Skaner. Skaner-matn, grafika, tasvirlarni kompyuterga kiritishni avtomatlashtirish uchun xizmat qiluvchi qurilma. 9-Rasm. U hozir asosan rangli ko'rinishda chiqarilayapti. Uning andozasi sifatida HP (hewlett packard) firmasi ishlab chiqaradigan HP Scanjet rusumli skanerlar qabul qilingan. Uning asosiy tavsifi ma'lumotlarni aniq, tiniq, lozim bo'lgan rangda (xususan qora rangli) ko'rinishda chiqarish qobiliyatidir. Ushbu tasvirlash qobiliyati gorizontal va vertikal chiziqlardagi nuqtalar (pixsellar) soni orqali belgilanadi.



Skaner dastur boshqaruvida ishlaydi. Matnlarni yaxshi tanish uchun maxsus obrazlarni tanuvchi dastur vositalaridan foydalilanadi. Bunday dasturlar hatto qo'lyozmani ham tanish qobiliyatiga ega. Shunday dasturlar Fine Reader va Cunei Form nomlari bilan ataladi.

Strimmer. Ma'lumotlarni kassetali tasma ko'rinishidagi xotira qurilmasiga yozish va undan o'qish uchun ishlatiladigan moslama. 10-Rasm.

Proyektor. Kompyuterdag'i ma'lumotlarni proyektsion ekranda kattalashtirib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.



Kompyuter xotirasasi

Kompyuter xotirasida dasturlar va qayta ishlanayotgan ma'lumotlar saqlanadi. Xotiraning har xil turlari va qurilmalari mavjud bo'lib, ularning asosiy xarakteristikasi axborot sig'imi va tez ishlashidir. Shaxsiy kompyuterninig hamma xotiralari tashkil qilinishi xususiyatlariiga va ishlatilishiga ko'ra ichki va tashqi turlarga bo'linadi.

Ichki xotiralar

Kompyutermi o'chirilsa, bunday xotiralardagi ma'lumotlar ham (doimiy xotiradagidan tashqari) o'chib ketadi.

Tezkor xotira kompyuterning muhim qismi bo'lib, protsessor undan amallarni bajarish uchun dastur, berilganlarni oladi va amalni bajarib, natijani yana unda saqlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompyuter o'chirilsa, tezkor xotirada saqlanayotgan dasturlar va berilganlar yo'q bo'lib ketadi. Shuning uchun ularni qattiq diskda yoki disketalarda saqlab qolish kerak.

Doimiy xotira. Kompyuterlarda berilganlar unga avvaldan joylashtirilgan *doimiy xotira* (BIOS-Basic Input- Output System-kiritish chiqarishning asosiy tizimi) mavjud. Bunday xotiradan faqat o'qish mumkin. Shuning uchun ham u ROM (Read Only Memory-faqat o'qish uchun) deb ataladi. IBM PC kompyuterlarda bu xotira kompyuter jihozlarini ishlashini tekshirish, amaliyot tizimini boshlang'ich yuklanishini ta'minlash, qurilmalarga xizmat ko'rsatishning asosiy funksiyalarini bajarish uchun ishlatiladi.

Kesh xotira. *Kesh xotira* kompyuter ishlash tezligini oshirish uchun ishlatiladi. U tezkor xotira va mikroprosessor orasida joylashgan bo'lib, uning yordamida amallar bajarish tezkor xotira orqali bajariladigan amallardan ancha tez bajariladi. Shuning uchun kompyuter xotirasining ko'proq ishlatiladigan qismi nushasini kesh xotirada saqlab turadi. Mikroprotsessoring xotiraga murojaatida, avvalo, kerakli dastur va berilganlar kesh xotirada qidiriladi.

Videoxotira. Videoxotira monitor ekraniga video ma'lumotlarni (videotasvirlarni) saqlab turish uchun ishlatiladi. Shuni aytish lozimki, videotasvirlar (ayniqsa rangli) kompyuter xotirasida ko'p joy egallaydi. Shuning uchun video xotira hajmi qancha katta bo'lsa, shuncha yaxshi albatta. Videoxotiraning 1 Mbaytdan kam bo'limgani maqsaa muvofiq.

Tashqi xotiralar

Kompyuter o'chiq yoki yoqiq holatida ham bunday xotiralardagi ma'lumotlar saqlanib qoladi va uni yana ishlatish mumkin.

Egiluvchan disklar. Ularning diametri 3.5 dyum (89 mm) bo'lib, hajmi 1,44 Kbgacha ma'lumotni saqlashga mo'ljallangan magnit qobiqli diskdan iborat.

Bunday diskdan ma'lumotni o'qish va unga ma'lumotlarni yozish tezligi juda kichik.

Qattiq disklar. Qattiq disklar ma'lumotlarni uzoq vaqt saqlashga mo'ljallangan disklardir. Ular ikki tarafi magnit qobig'i bilan qoplangan 1 tadan 5 tagacha aylana metal plastinalardan iborat bo'lib, umumiy o'qda katta tezlikda to'xtovsiz aylanib turadi. Bunday disklarni mexanik buzilishini oldini olish maqsadida maxsus metal korpus bilan himoyalab qo'yiladi. Ularning hajmi hozirda 300 Gbgachani tashkil qiladi.

Lazerli (kompakt) disk. Keyingi paytda bu qurilma juda muhim rol o'ynamoqda. Uning asosiy sababi unga 650 - 700 Mbayt hajmdagi ma'lumotni sig'ishi bo'lsa, ikkinchi torondan uni ishlatalishda qulayligi bilan alohida etiborga loyiq. Uning CD ROM, CD R va CD RW ko'rinishdagilari mavjud Bunday disklarning ikki tarafiga ham yoziladiganlari hozirgi kunda keng qo'llanilayapti.

DVD disklar. Bu nomdag'i disklar raqamli ko'pmaqsadli audio-video ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan bo'lib, ularning ma'lumot sig'imi 4.7 Gbdir. Ularning ham faqat bir marta va ko'p marta yoziladigan ko'rinishlari mavjud. Bunday disklarning ham ikki tarafiga yoziladiganlari bor.

Flesh-xotira. Bunday xotira qurilmasi mikrosxemelardan iborat bo'lib kompyuterning USB portiga ulanadi. Ihlarning 256, 512, 1, 2 Gb va undan katta hajmlilari ham mavjud. Ularga ma'lumotlarni katta tezlikda yozib olish va saqlash imkonli bor.

Disk yurituvchilar(Diskovodq)

Bu qurilmalarning ayrimlari tashqi xotiralarga ma'lumotlarni yozish va o'qish, ayrimlari esa faqat ulardan ma'lumotlarni o'qish uchun xizmat qiladi. 11-Rasm.



Egiluvchan 3.5 dyumli disklarga ma'lumotlarni ham yozish ham o'qish uchun xizmat qiladigan disk yurituvchilar nisbatan arzon narxda bo'lgani uchun, ularni barcha shaxsiy kompyuterlarga o'matilgan bo'ladi.

Qattiq disklar kompyuterni ishlashi uchun kerak bo'ladi xizmatchi dasturlarni va foydalanuvchining ma'lumotlarini uzoq muddat saqlashga

mo'ljallangan. Ularning hajmi juda katta bo'lgani uchun undagi ma'lumotlarni qidirib topish yoki ma'lumotlarni saqlash uchun bo'sh joy tanlash birmuncha vaqt talab qiladi. Shuning uchun bunday diskning har bir qavatida shu diskni har ikkala tarafini o'qiydigan golovkalar o'rnatilgan. Diskni esa odatda mantiqiy ravishda ikki yoki undan ko'p bo'laklarga bo'lib har birini alohida disk deb e'lon qilinadi. Shuning hisobiga diskda ma'lumot bilan ishlashda katta tezlikka erishiladi.

Lazerli disklarga odatda zavodda yuqori aniqlikdagi lazer yordamida ma'lumotlar yoziladi va keyinchalik bu ma'lumotlarni faqat CD ROM qurilmasi yordamida o'qiladi. Hozirgi kunda CD Writer va DVD RW qurilmalari ham bor bo'lib, ular yordamida lazer disklarga kompyuterning o'zida ma'lumot yozish va o'qish mumkin.

Drayverlar

Bu shunday dasturki, u ma'lum qurilmalarni amaliyot tizimi bilan birga ishlashini ta'minlaydi. Agar tizimga biror qurilma ulangan bo'lsayu unga mos drayver o'rnatilmagan va sozlanmagan bo'lsa, u holda Windows bunday qurilmanni tanimaydi. Masalan: klaviatura, monitor, disk, printer va boshqa qurilmalar drayverlari bor.

Shina

Barcha adapterlar mikroprosessor va xotira orqali berilganlarni ayriboshlovchi magistral yo'l deb ataluvchi shinalar orqali bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, oddiy so'z bilan aytsak, shinalar turli qurilmalarni bog'lovchi maxsus simlardir. Kompyuterda bir qancha shinalar bo'lishi mumkin. Kompyuterlarning elektron tuzilmasi elektron plata deb ataluvchi modullardan iborat. Uning modul tuzilishiga ega bo'lishi kompyuterlar ta'mirlanishini oson bajarish, uni foydalanuvchi ehtiyojiga qarab yig'ish va o'zgartirish imkoniyatini beradi.

Tizim platasi

U kompyuterning asosiy platasi hisoblanib, unga BIOS, mikroprotsessor, tezkor xotira, kesh xotira, shinalar joylashtirilgan bo'ladi. Bundan tashqari, unda ba'zi bir qurilmalar, ishni boshqaruvchi elektron tizimlar, klaviatura, disk

qurilmalari adapteri ham joylashgan bo'ladi. Hozirda shinalarning PCI / ISA turi keng ishlatalmoqda. Bunday shinalarning ma'lumot ayriboshlashi tezligi yuqori bo'lib, u orqali kompyuterga ko'p tashqi qurilmalarni ulash mumkin.

Kompyuterda kiritish-chiqarish portlari kontrolerlari mavjud bo'lib, ular tizim blokining orqa qismida joylashgan *slot* deb ataluvchi joylar orqali printer, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanishi uchun xizmat qiladi. Kiritish-chiqarish portlari parallel va ketma-ket bo'ladi va ular mos ravishda LPT1-LPT4 va COM1-COM3 deb belgilanadi. Odatda LPT portga printer va COM portga faks-modem, sichqoncha va boshqa qurilmalar ulanadi.

Windowsning multimedia imkoniyatlari

Tovushlar va videoelementlar (video) bilan ishlash multimedia vositalari deb ataladigan maxsus texnik va uskunaviy qurilmalar bilan amalga oshiriladi. Bunday texnik vositalar bilan jihozlangan kompyuter multimedia - kompyuter deb ataladi.

Multimedia atamasining lugaviy ma'nosi multimuhitni anglatadi. Ammo multimedia tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emas. Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Ayni vaqtida bu avvalo tovushlar, videoelementlarni qayta ishlovchi vositalardir. Shu bilan birga multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika hollarida ham multimedia haqida gapirish mumkin. Kelajakda multimedia vositalari ma'lumotning boshqa turlari, masalan, virtual voqiylik bilan ishlash imkonini berishi ehtimoldan xoli emas.

Mul'timedia qurilmalari

Raqamlili foto- va videokameralar kompyuterga tasvirli va tovushli ma'lumotlarni (fototasvir va videofilg'mlarni) kiritish uchun mo'ljallangan.

Mikrofon tovushli ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan.

Kolonkalar va quloqqa taqiladigan uskuna tovushli ma'lumotlarni eshitish uchun mo'ljallangan.



12-Rasm. Kompyutering qo'shimcha qurulmalari.

Vebkamera kompyuterga videotasvirli ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri kiritish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy elektron doskalarning turlari va ulardan foydalanish.

O'quv jarayonidagi asosiy muammolardan biri talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunishlarini, xotiralarida saqlash va qo'llash yo'llarini egallashni yaxshilashdan iborat bo'lmoqda. Ma'lumki, inson ma'lumotlarning 80 foizini ko'rish, 15 foiziga yaqinini eshitish va qolgan 5 foizini maza-tam bilish sezgi organlari orqali oladi. Biroq hayotda ma'lumotlarni faqat qabul qilibgina qolmay, uni yodda saqlash ham kerak.

Ta'lim sohasidagi qo'llanilayotgan ilg'or axborot texnologiyalarining asosiylaridan biri — interfaol elektron doskalar hisoblanadi. Bu mo'jiza doskalar zamonaviy texnologiyalar rivojlanishining eng yuqori cho'qqilaridan hisoblanadi. Ular oddiy markerli doskalar kabi ko'rinishga ega bo'lib, ularda yozilayotgan har bir matn, grafik ko'rinish, chizma, jadval kabilar daqiqalarda tez kompyuter ekranida paydo bo'ladi. Elektron doskalarning asosiy afzalliklari qo'yidagilar:

- ma'lumotni tahrirlash ko'lamining kengligi;
- natijalardan nusxa olish, elektron pochta orqali jo'natish, saqlash imkoniyatlarining mavjudligi;
- matn, tovush, animatsiya, grafikalardan bирgalikda foydalanish imkoniyatining kengligi;
- virtual auditoriya yaratish imkonida namoyon bo'ladi.

Yozib olingan ma'lumotlar fayl ko'rinishida saqlanadi va oddiy printerda chop etilishi mumkin. Intersaol elektron doskada yozilgan matn va grafik

ko'rinishlar rangli markerlar bilan shakllantirilishi hamda printer rangli bo'lgan hollarda chop etiladigan nusxalar ham rangli bo'lishi mumkin. Ranglardan foydalanish ma'lumotlarni ajratish va uni samarali qabul qilishga imkon beradi.

Interfaol elektron doskalar aqliy hujumlar uchun ajoyib vositadir. Unda yozilgan axborotlarni, nafaqat muhokama qilish davrida xotirada saqlanadi, balki uni ketma-ket tiklash imkonini ham yaratadi.

Bu doskalar bilan birgalikda, taklif etiladigan dasturiy ta'minotlar, bir vaqtning o'zida bir necha shaharlarda, joylarda seminar o'tkazish va sezilarli darajada auditoriyani geografik jihatdan kengaytirishga imkon yaratadi. Seminar tinglovchilari o'zlarining monitorlarida uzatiladigan axborotlarni o'qish yoki jamoa holda muhokama qilishlari uchun uni katta ekranda namoyish etish mumkin.

Sensorli elektron doska markerlar yordamida har xil foydalanuvchi interfeysini chaqirib oladigan, hajm jihatidan katta bo'lgan sensor ekrandir. Ular klassik taqdimotlarda yuqori texnologiyalar imkoniyatlari bilan birgalikda, barcha imkoniyatlardan foydalanishga sharoit yaratadi. Interfaol elektron doskalarga ulangan multimedia-proyektorlar multimediali muhitda ishlash uchun, axborotlarni internet orqali, magnitofon, kompyuter, DVD-disklar, flesh xotira yoki videokameralar bilan taqdimot tipida namoyish qilish uchun sharoit yaratadi⁵.

Interfaol elektron doskalarda yozilgan barcha axborotlar ketma-ketligini kompyuterda namoyish etish uchun dasturiy ta'minotlarda imkoniyatlari ishlab chiqilgan bo'lib, bunday namoyish etishlar ham to'g'ri, ham teskari holda amalga oshirilishi mumkin.

Interfaol elektron doskalarda qanday texnologiyalardan foydalaniladi? Hozirgi vaqtda ikkita texnologiya, sensor ekanli va elektromagnit nurlanishli texnologiyaga asoslangan interfaol doskalar ishlab chiqarilmoqda.

Sensor interfaol elektron doskalar ingichka o'tkazgichli ikkita qatlamdan iborat. Bunday doskalar o'quv muassasalari uchun juda qulay hisoblanadi. Ular

⁵ I.Tillaboyev, Interfaol doskadan foydalanish, 16 b. N.2015 y.

ishonarli va agar axborotlar o'chsa yoki yo'qolib qolsa, hech qanday maxsus usullarni talab qilmaydi. Ularning yana bir afzalligi — ma'lumotlarni nafaqat marker bilan, balki qo'l bilan ham yozish mumkinlidigadir. Bu texnologiya maxsus markerlarni talab qilmaydi, ishslash uchun hech qanday nurlanishdan foydalanilmaydi va tashqi shovqinlar ta'sir etmaydi. Kamchiligi-markerni yoki uni boshqa vosita bilan almashtirilganda matriksalar reaksiyasida unchalik katta bo'limgan ushlanishlar bo'ladi.

Elektromagnitli texnologiya yozuvchi qurilmalardan uzatilgan elektron signallarga asoslangan. Bunday qurilma sifatida elektron qalam, elektron ushlagichga kiritilgan marker bo'lishi mumkin. Afzalligi-qattiq va mustahkam yuzani yaratish imkoniyatining mumkinligidir. Kamchiligi-elektromagnitli nurlanishlar bilan ishslash va maxsus markerdan foydalanish zaruriyatining mavjudligida ko'rindi.

Bu ikki texnologiya yaxshi ishlab chiqarilgan va keng tarqalgan. Bu tipdag'i doskalar uchun o'quv jarayonida qo'llanishga maxsus tayyorlangan, shunga yo'naltirilgan va to'liq holda yetkazib beradigan standart komplektiga kiruvchi dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan.

Hozirgi vaqtida marker holatini aniqlash uchun infraqizil va ultratovushli datchiklardan foydalanuvchi doskalar ishlab chiqilmoqda. Ularning kamchiligi-datchiklar boshqa nurlanishlarga ham sezuvchandir. Gohida datchiklar o'rniga infraqizil lazerlardan foydalaniladi. Infracqizil markerlar markerning tegishli holatini yuqori aniqlikda hisoblaydi.

Bu texnologiyalardan qaysi biri ommabop bo'lishi mumkinligini aytish qiyin, lekin barcha yangi texnologiyalarning rivoji maxsuslashtirilgan dasturiy ta'minotga bog'liq bo'ladi.

Interfaol elektron doskalar bilan savdo qiluvchi kompaniyalar faqat bitta texnologiya asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotmoqda. «De Layt 2000» kompaniyasi bu ikki texnologiya bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish

bo'yicha o'z mavqeiga ega. Sensorli texnologiya Polyvision kompaniyasi interfaol elektron doskalar uchun ishlab chiqarilgan, ikki seriyadagi TS/TSL va WT/WTL doskalarda qo'llaniladi. Mazkur seriyadagi doskalar yuqori aniqligi bilan ajralib turadi (8000×8000 nuqta), harakatlarni tasvirlashning yuqori tezligiga ega bo'lib, ular markerlar yoki qo'l bilan bajariladi. TSL va WTL seriyalarining asosiy ko'rsatkichlaridan, ularda avtomatik tebranish funksiyasi ishlab chiqilgan. Agar ish jarayonida behosdan doskaga tegib ketilsa, pultdagi tugmachani bosish yetarli va tebranish avtomatik holatga o'tadi. WT\WTL seriyasidagi doskalar afzalligi Walk-and-Talk masofadan boshqarish pultining mavjudligidadir.

Sahara kompaniyasining elektromagnitli doskalaridan Communicator 77 va Penbord modellari o'quv auditoriyalari uchun mo'ljallangan. Bu modellarda kompyuter sichqonchasi o'rniga maxsus multimediyali marker ishlataladi. Bu texnologiyadan foydalanish yuqori tezlikli va aniqlikdagi (1000 liniya dyuym) doskalar bilan ishlash imkonini beradi.

Antivandal qoplama interfaol elektron doskalarni chizilish, shikastlanishdan himoyalaydi va uzoq vaqt ishonarli ishlashini kafolatlaydi. Ozroq joyi ishdan chiqsa ham doskaning ishlash qobiliyati yo'qolmaydi.

O'quv auditoriyalari uchun maxsus ishlab chiqarilgan Penbord doskalarining och-kulrang qatlami uzoq vaqt ishlaganda ko'zlarning charchamasligini ta'minlaydi. Barcha elektromagnitli doskalar ichida bu doskaning ajralib turuvchi belgisi, unda oddiy marker bilan yozish imkon mavjudligidadir.

Communicator 77 doskasi 20 ta qaynoq tugmaga ega bo'lib, ular ekranning ikki tomonida joylashgan. Qaynoq tugmalar har xil funksiyalarni tez bajarishga imkon beradi. Ulardan 17 tasi dasturlanishi, ya'ni ularga boshqa funksiyalar yuklanishi mumkin.

Activboard interfaol elektron doskasini Prometneon LTD firmasi ishlab chiqargan va u konferensiya prezentsiyalarini namoyish etish uchun mo'ljallangan.

Prometneon LTD interfaol elektron doskalarda ish olib borilganda, ushbu doska barcha imkoniyatlaringizni ko'rsatishga yordam beradi. Interfaol elektron doska ACTIVboard dasturiy ta'minotlarda ishlash imkoniyatini beradi va bu orqali sizni tinglab turuvchi auditoriya a'zolariga ma'lumotlarni yetkazish sifatini oshiradi.

ACTIVboard — interfaol elektron doska 1,25 m, 1,62 m, 1,99 m yoki 2,45 m diagonalli bo'lib, kompyuter va projektor bilan birgalikda ishlaydi. Elektron qalam faol ekran orqali kompyuterni boshqarib, Windows tizimining istalgan ilovasida ishlay oladi. Infragizil portli panel yordamida faol ekranni auditoriyaning istalgan joyidan turib boshqarish mumkin. Aktivtest simsiz radiopultdan foydalanib, audiotoriyada test tayyorlash va uni o'tkazish imkonini yaratadi.

Activboard interfaol elektron doskalaridan foydalanish auditoriyadagi har bir qatnashuvchining faol ishtirokiga imkon yaratadi. Elektron qalam orqali kompyuterni sichqoncha kabi boshqarib, Interfaol elektron doska ACTIVboard-konferensiylar, prezentsiyalar va masofadan o'qitishlarni sifatli o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Activboardda — namoyish etiladigan o'quv ma'lumotlarini tayyorlashda va namoyish etishda ACTIVTable — plansheti sodda va qulay yordamchidir. Bu planshet kompyuter sichqonchasi vazifasini bajaradi. Ma'lumotlarni tayyorlashda prezentsiya yoki konferensiya uchun ACTIVStudio2 yoki ACTIVPrimary texnologiyalarini qo'llaydi. ACTIVTable kompyuterga USB-porti orqali ulanadi va dasturiy ta'minotni barcha funksiyasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Simsiz qalam orqali, flipchart oynasida matn yozishda yengillik tug'diradi.

ACTIVote — bu prezentsiya konferensiya o'tkazish paytida doimiy «teskari aloqa» texnolgiyasidir.

ACTIVote2 test sistemasi barcha konferensiya qatnashchisiga, savollarga javob berish, ko'rsatilgan bir nechta javoblardan to'g'ri variantni tanlash radiopult tugmasini bosish yordamida amalga oshiriladi. Aktivboard radiopult uzatgan

ma'lumotni qabul qilib, uni qayta ishlab, konferensiya qatnashchilari bilan uzlusiz aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu texnologiyada auditoriya bilan aloqa o'rnatishda qo'llaniladi. Masalan, muhokamada, ma'lu-motlarni yig'ishda yoki testda AKTIVVote2 sistemasi odatda 16 yoki 32 ta pult komplekti mavjud bo'lib, ular tinglovchilarga tarqatiladi va doimiy aloqa o'rnatadi.

ACTIVWAND⁶ elektron ko'rsatkich uzunligi 54 sm bo'lib, bo'yisi past foydalanuvchilarga elektron doskaning yuqori qismini namoyish etishda qulay. elektron ko'rsatkich yon tomonida tugmalar mavjud bo'lib u kompyuter sichqonchasini chap tugmasi funksiyasini bajaradi. Ko'rsatkich ish jarayonida «Rollover» va «Hover» funksiyalari mavjud, bu funksiyalar dasturiy vositalarni boshqarish va veb-sahifalar ustida ishlash vazifalarini yengillashtiradi. Elektron ko'rsatkichning afzallik tomoni shundaki, u proyektordan ACTIVboard doskasiga tushayotgan nurni qaytarmaydi⁷.

1.3. Bugungi kun talabalari ham o'qituvchilari ham jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari yangiliklarini o'zlashtirishga intilmoqdalar. O'quv muassasalari zamonaviy elektron uskunalari bilan ta'minlanmoqda. Talabalar va o'qituvchilar displeylar, videoaloqa tizimlari, elektron, interaktiv darsliklardan foydalanmoqdalar. Axborot texnologiyalari ta'lim sohasi oldida ham katta imkoniyatlar yaratayotganligi barchani quvontiradi, biroq ba'zi fanlarni o'qitishda o'qituvchilar yangi ta'lim shakllaridan foydalanib darsni taqdim etishga muhtoj ekanligini esdan chiqarmaslik kerak.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan, elektron qurilmalardan biri — interaktiv doska hisoblanadi. U display va multimedia-proyektordan tashkil topgan bo'lib, maxsus kabel yordamida kompyuter yoki boshqa manbaga ulanadi: televizor, videomagnitofon, videokameradan videosignal ekranga yetkazib beriladi.

⁶ [www.google.ru materiali](http://www.google.ru/search?q=materiali).

⁷ I.Tillaboyev, Interfaol doskadan foydalanish, 16 b. N.2015 y.

Mana shunday doska yordamida o'qituvchi talabalarga elektron ko'rinishdagi grafiklar, diagrammalar, xaritalar va jadvallarni taqdim etishi, videoroliklar yoki o'quv filmlarini namoyish etishi mumkin. Bunday doskada internetdan olingen ma'lumotlar darhol aks ettiriladi. Proyektsion uskunalarining ba'zi modellari o'quv materiallarini ekranga o'qituvchining xohishiga ko'ra navbat bilan yoki bir vaqtda namoyish etishni ko'zda tutadi. Lekin "aqlii" doskaning imkoniyatlari shu bilan cheklanmaydi.

Leksiya davomida o'qituvchi "Marker" yoki oddiygina, barmog'i bilan doskaga yozishi, tasvir lavhalarini ta'kidlashi yoki ajratib ko'rsatishi va bajarilgan barcha harakatlarni keyingi ishlar uchun saqlab qo'yishi mumkin. Chiziqlar rangi va qalinligini o'qituvchi o'zi tanlaydi. "Flomasterning" o'zi — moslashuvchan qurilma: markerni qo'lga olganda, ishga tushadigan sensorlari o'zida emas, balki lotokda joylashgan⁸.

Bundan tashqari, maxsus dasturiy ta'minot interaktiv doskada qo'lda yozilgan matnni bosma matnga aylantirishga imkon beradi. Kursor (flomaster yoki barmoqning) harakatlari ketma-ket portga ulangan boshqarish kabeli yordamida kompyuterga uzatiladi. Harakatlarni qayd etish usulini tanlash interaktiv doska turiga bog'liq bo'ladi. Lekin doska flomaster yoki o'qituvchining barmog'i harakatlarini qanday "his" qiladi?

Interaktiv doskalarning ikki turini ko'rib chiqamiz. To'g'ridan-to'g'ri namoyish etish tizimlarida ishni boshlashdan avval doska kompyuterga va proyektorga ulanadi va unga ekran sifatida tasvir uzatiladi. Interaktivligi maxsus dasturiy ta'minot yordamida yaratiladi. Kursoring doskadagi harakatlarini nazorat qilib borish uchun sensorli rezistiv deb ataluvchi texnologiya –havo oralig'i bilan ajratilgan ingichka o'tkazuvchilar ikki qatlam to'ri qo'llaniladi. Uning zinchligi (2000x2000 nuqtalar) har qanday zamонавиy monitorlar va proyektorlarni to'la "qoplaydi".

⁸ I.Tillaboyev, Interfaol doskadan foydalaniш, 16 b. N.2015 y.

Teskari proyeksiya doskasida proyektor ekran ortida joylashadi, bu juda qulay: ekranni ma'ruzachining soyasi to'smaydi, proyektorning yorqin nuri ko'zga tushmaydi. Doska ancha katta — barcha asosiy va yordamchi uskunalarini (multimedia-proyektor, tizimli bloki, printer, audio va videotexnikalar) maxsus shkaf-g'ilofda o'matilishi yoki joylashtirilishi mumkin.

Mana shunday doskaning burchaklarida kichik raqamli videokamera-sensorlar o'rnatilgan bo'lib, ular kursor (flamaster yoki barmoq) koordinatalarini aniqlaydi. DViT (Digital Vision Touch) deb ataluvchi ushbu texnologiya deyarli har qanday qiya katta ekranni interaktiv qilishga imkon beradi.

Zamonaviy texnologiyalar sanoqli daqiqalarda har qanday plazmali panel yoki LCD monitorni interaktiv ekranga aylantirish imkonini beradi, faqatgina displayga maxsus moslamani mahkamlash zarur. Uning yordamida inson fikrlovchidan faol foydalanuvchiga aylanadi.

Interaktiv ekranga barmog'ini tek kazib, Internetga ulanadi, dasturlardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Bunday ma'lumotlar panellari chet ellarda do'konlarda, ko'rgazmalarda, aeroportlar, muzeylarda, banklarning mijozlar uchun zallarida o'rnatilmoqda.

Ta'lim jarayonini yana qulaylashtirish qurilmalari ro'yxati Interaktiv doska bilan cheklanmaydi. Kompyuterning interaktiv monitoridan iborat bo'lgan maxsus planshet o'qituvchilar uchun juda qulay.



13-rasm. Planshet

Planshet orqali boshqarish ekranga maxsus ruchkani (“smartfonlar” va “naladonniklarda” foydalaniladigan texnologiyaga o‘xshash) tekkazish yordamida amalga oshiriladi. Ushbu planshetda ruchka orqali yoziladigan ma’lumotlar, rasm va grafiklar proyektor yordamida ma’ruzachi bajaradigan barcha harakatlar taqdimot ekraniga chiqariladi.

Mana shuning hisobiga hatto juda katta auditoriya ham o‘qituvchining harakatlarini kuzatishi mumkin bo‘ladi. Planshetlar odatda stollarda yoki ma’ruzachi kafedralarida o‘rnataladi. Endi o‘qituvchi auditoriya tomoniga qarab turib, interaktiv doskada yozishi yoki ko‘rsatishi mumkin.

O‘quv jarayoniga multimedia-texnologiyalarini tatbiq etish materiallarni o‘zlashtirish uchun qulay emotsiyonal muhit yaratish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari ushbu holatda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘quv auditoriyalarida qulay emotsiyonal muhitni ta’minlash uchun faqatgina axborot texnologiyalari yangiliklari emas, balki boshqa, ancha oddiy metodlar ham o‘qituvchiga yordamga keladi. Misol uchun o‘quv sinflarida maxsus aromatizatorlar o‘rnatish taklif qilinadi. O‘qituvchilarning o‘zlarining fikrlari bo‘yicha bunday xonalarda materiallarni o‘zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi.

Interaktiv elektron darsliklarning yangi avlodini yaratish — o‘quv jarayonini modernizatsiyalashtirish yana bir istiqbolli yo‘llaridan biri hisoblanadi. Darsliklar CD, DVD larga yozib olingan bo‘lishi yoki Internetda biror-bir o‘quv saytida bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy elektron darslik deyarli ma’lum mavzudagi ma’lumotlar bazasidan iborat hisoblanadi. O‘quvchilar so‘rovnomalar tuzadilar va matnlar, grafiklar, illyustratsiyalar, diagrammalar, ovozli fayllar ko‘rinishidagi zarur axborotlarni oladilar. Biroq elektron darsliklar qanchalik qiziqarli bo‘lmasin, ular ko‘pchilik hollarda pedagoglar va psixologlar tomonidan emas, balki yosh dasturchilar tomonidan yaratilishini esdan chiqarmaslik kerak.

Bunday qo'llanmalar foydalanuvchi va o'quvchilarning idrok etishga qiziqishlarini yo'qotadi. Shuning uchun elektron darsliklar pedagoglar, psixologlar, musavvirlar va dasturchilarning hamkorlikdagi ijod mahsulotlari bo'lishi kerak.

Ta'lrim tizimini va jamiyatni axborotlashtirishni rivojlantirishda bugungi kunda butun jahon tarmog'i — Internet alohida ahamiyatga egadir. Internet tarmog'i foydalanuvchiga o'zaro bog'langan kompyuterlar tarmog'i orqali axborotlar, ma'lumotlar, xabarlar, grafik va hatto tovushli axborotlarni oddiy pochtadan ko'ra ancha sifatli darajada tez uzatish imkonini beradi. Qisqa daqiqalar ichida Internet orqali kerakli ma'lumotni olish mumkin. Internet zamонавиy ta'lrim tizimida borgan sari muhim o'rин egallab borayotganligi barchaga ma'lum. Global tarmoq faqatgina izlash tizimi emas, balki foydalanuvchilar o'zlarining materiallarini ham joylashtira oladigan tarmoq ekanligini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda o'quv kursini o'rganishi davomida talaba Internetda o'zining shaxsiy tematik resursini tuzishi hollari uchraydi. Bu olgan bilimlarini tizimlashtirish va qo'llashga yanada chuqurroq va mas'uliyat bilan asosiysi, mustaqil yondashishga imkon beruvchi Internet texnologiyalaridan foydalanish bilan o'quv jarayoni umuman yangi shakli hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtida, talabalar veb-dizayn va veb-dasturlashtirish asoslarini o'zlashtiradilar.

Axborot texnologiyalari asosiy qo'shimchalaridan biri—ulardan masofali ta'lrim tizimida foydalanish hisoblanadi, ular talabalarga qulay paytda masofadagi serverga ulanish, o'qituvchidan kerakli axborotni bilib olish va maslahat olish imkonini beradi.

Ta'lrim tizimida videoaloqani amalga oshirish uchun uskunalar ma'lumotlar uzatish turli protokollari bo'yicha ishlaydi, ularning orasida IP (Internet protocol) va ISDN (Integrated Services Digital Network) eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. ISDN texnologiyasida ma'lumotlar telefon kabeli orqali uzatiladi, bu esa axborot uzatish tezligini biroz cheklaydi. IP-texnologiyasida bunday cheklanish yo'q. Bu texnologiyada Internet ma'lumotlar uzatish muhitni sifatida xizmat qiladi.

Hozirgi kunda IP va ISDN protokollari bo'yicha ma'lumotlar uzatish videokonferens aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Texnik vositalarni takomillashtirish jarayoni cheksiz, lekin bu masalaning muammoli tomonlari ham bor. Taqdim etilayotgan materiallarning ko'rgazmaliligi, namoyish etilishi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dars yaxshi o'zlashtiriladi va uzoq vaqtga xotirada qoladi. Biroq eng zamonaviy multimedia-vositalar yordamida taqdim etilgan materiallar talabalar e'tiboridan chetda qoladi: ular o'z aqlлari bilan analitik fikrlamaydilar. Natijada talabalarning barchasi ham o'z bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi, ularni ijodiy anglab yetmaydi.

Shunga qaramasdan, yangi texnologiyalar pedagogikaning asosiy masalalaridan biri-talabalarda bilimlarga intilish va yangi cho'qqilarni zabit etish istagini hosil qilish masalasini hal etish vositasi bo'lib qolishi mumkin. Yangi texnologiyalar talabalarni qiziqtiradi, ularni ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga chorlaydi deb ishonamiz. So'zimizni yakunlab bugungi kunda ta'lim sohasidagi zamonaviy vositalarga qo'yidagilar kiradi deb ayta olamiz:

- internet (masofaviy ta'limda);
- elektron doskalar;
- elektron o'quv adabiyotlar va boshqalar.


Mamlakatimizda ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, ushbu sohada yoshlarni o'qitishni rag'batlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'quv jarayonidagi asosiy muammolardan biri talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish, berilayotgan bilimlarni tushunishlarini, xotiralarida saqlash va qo'llash yo'llarini egallashni yaxshilashdan iborat bo'lmoqda. Xuddi shuning uchun ham ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish maqsadida turli xil texnik va texnologik vositalardan foydalaniylmoqda. Iptboard elektron doska ham yangi texnologiyalardan biri bo'lib ulardan foydalanish bo'yicha o'zbek tilidagi adabiyotlar shakllanmagan.

Ta'lim sohasida yaratilayotgan yangi va ilg'or axborot texnologiyalaring qo'llanilishi natijasida ta'limgning zamonaviy vositalari vujudga kelmoqda.

Bugungi kunda keng qo'llanilayotgan ta'limgning zamonaviy vositalariga:

kompyuter, uning asosiy va qo'shimcha kurilmalari, maxsus oq doska , plipchard, video tasvir, videoproektor, kodoskop, multemidiali dasturiy vositalar, IPad planshetlari, IPBOARD elektron doskasi va hakozolar kiradi.

Elektron interaktiv doska – ta'limga axborot texnologiyalarni qo'llashning



yangi bosqichi.14-Rasm. O'qitish jarayoning samaradorligi yuqori bo'lishining asosiy omillaridan biri, fanning ko'rgazmali axborot bilan ta'minlanganligidir. Xozirda o'quvchi turli zamonaviy vositalar bilan qurollangan bo'lishi davr

talabiga aylandi. Shuningdek bugungi o'qituvchi o'quvchilariga sifatli ta'limga berishni istasa, turli usul va vositalar bilan birga zamonaviy , ilg'or texnologiyalar bilan ham jihozlangan bo'lishi darkor. Xozirgi kunda biz bilamizki dars jarayonida turli xil multimediya vositalaridan foydalaniladi. Ular dars samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchlarning soddarroq tushunishiga zamin yaratadi. Yoki barcha foydalanadigan qo'l telefonlarini olsak: telefonlarning yangi modellari bilan tanishihib shu xulosaga keldikki, tugmali telefondan foydalangandan ko'ra sensorli telefondan foydalangan qulayroq. Chunlik undan foydalanish ham oson, ham qulay, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajarish orqali vaqtini tejaydi.

Xuddi shuningdek o'qitish jarayonini samarali tashkil etishda interaktiv doskaning o'rni beqiyos. Ulaming turlari, ishslash tamoyillari hamda o'qitishni samarali tashkil qilishdagi imkoniyatlari juda yuqori.

1. Elektron interaktiv doskaning afzallikkleri;
2. Doskada tushuntirishda yon tomonga turish shart emas.

3. O'quvchi, o'qituvchi doskada ruchka bilan yozish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Doska sensorli bo'lib tasvirni boshqarish mumkin.

5. Dars jarayonida foydalaniladigan proyektorlar bilan kelib chiqadigan noqulayliklardan holi. Masalan proyektorlarni ishga tushurish, kabellarni ularash vaqt talab etadi. Interaktiv doskani ishga tushirish ma'lum daqiqalarda amalga oshiriladi xolos. Bu esa vaqtini tejab, o'quvchilarga ko'proq ma'lumot berish uchun zamin yaratadi.

6. Internetga ulanib har qanday resurslardan to'g'ridan to'g'ri foydalanish mumkin, boshqa manzil bilan ham bir vaqtning o'zida muloqot qilish ham mumkin. Matematikada slayd usulidan foydalansa ham bo'ladi: geometrik figuralarni tushuntirishda fazoviy usullardan ham foydalanish orqali o'quvchilar tasavvurini oshirish mumkin.

7. Bizning hududda ham yoshlar va aholi o'rtaida texnologiyaning oxirgi ko'rinishlaridan unumli foydalanib kelinmoqda. Axborot tezligi oshib borayotgan xozirgi zamonda o'quvchilar ham ma'lumot bilan ishlashning oson va qulay usullaridan foydalanishni yo'lga qo'ygan.

Masalan: avvallari biz lug'atni kitobdan qidirsak, o'quvchilar telefondagи lug'at programmalaridan qidirayapti. Bu esa ishning unumdarligini yanada oshiradi.

8. Komputerga ketadigan ko'rgazmali qurollarni, kitoblarni qog'ozga tushirib tahlasak xonamizga sig'masligi mumkin. Interaktiv doska esa ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishda qulaylik yaratadi.

9. Odatdagи darslarda foydalaniladigan bo'r va latta bilan kelib chiqadigan noqulayliklardan ham holi. Maxsus ruchka orqali istalgancha ma'lumotni o'quvchilarga hech qiyinchiliksiz yetkazish mumkin.

Yuqorida sensorli doskaning afzalliklari haqida to'xtalib o'tdim. O'yaymanki, bu ixtiro darslarimizni yanada samarali tashkil qilishimizda bizga ko'makchi bo'ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, eski maktablarda otabobolarimiz utirib doskasiz o'qigan bo'lishsa, bizga kelib sizga tanish doskalardan foydalaniłmoqda. Darslaming sifati qulayliklarga mos holda o'zgarib boraveradi.

O'tilgan mavzuni Pedagogik texnologiyalarni qo'llab, mavzuning asosiy tomonlarinin mustahkamlash mumkin:

1. Sinkveyn texnologiyasi:

Zamonaviy texnik vositalar

Ko'rsatuvchi, yetkazib beruvchi

Yetkazib beradi, yordam qiladi, ko'rsatadi

O'qitishda vosita sifatida qo'llaniladi.

Ta'limiy vositalar

Ot _____ Zamonaviy texnik vositalar

Ikkita sifat _____ Ko'rsatuvchi, yetkazib beruvchi

uchta fe'l _____ Yetkazib beradi, yordam qiladi, ko'rsatadi


To'rtta so'zdan iborat jumla_____

O'qitishda vosita sifatida qo'llaniladi.

Sinonim_____


Shema 1. Sinkveyn texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyalardan mavzuga oid misollar keltiramiz. Klaster texnologiyasi:




Shema 2. Klaster texnologiyasi.

Axborot texnologiyalarining turlariga doir klaster:



Mavzuga oid klasterlar-pedagogik texnologiyalarga misollar:



Pedagogik texnologiyalarga namunalar 3,4. Shemalar 3,4.

Takrorlash uchun savollar:

1. Kompyuter arxitekturasi deganda nimani tushunasiz?
2. EHMning avlodlari haqida gapirib bering.
3. Komp yuterning asosiy qurilmalari va ularining vazifalarini aytib bering.

4. Kompyuterning yordamchi qurilmalari va ularining vazifalarini aytib bering.
5. Markaziy protsessorning vazifasi nimadan iborat?
6. Operativ xotira qanday vazifani bajaradi?
7. Monitorlar qanday xolatlarda ishlashi mumkin?
8. Disklarning qanday turlari bor?
9. Elektron doskalarni qanday kompaniyalar ishlab chiqqan va ularning tasnifi qanday?
10. Interfaol planshet haqida nima bilasiz?
11. O'quv jarayonida zamonaviy planshetlardan, iPhone va iPadlardan ingliz tilini o'qitishda va o'rGANISHDA qanday tarzda foydalanish qulay?
12. Qandy zamonaviy o'quv-texnik voitalarni bilasiz va ularni sizning mutahassisligingida qo'llanilishining samarali tomonlarini sanab bering.
13. Elektron doskani ta'limda qo'llashdag'i samarali tomonlarini sanab bering?

Adabiyotlar.

1. M.Aripov., Informatika, information texnologiyalar., Toshkent 1995 y., -b. ., 2005 y. –b. 276.
2. M.Aripov, A. Xaydarov, N. Muxitdinova. Algoritm asoslari va algoritmik tillar (ma'ruzalar matni). Toshkent,2000.
3. M.Aripov . Informatika va xisoblash texnikasi asoslari buyicha inglizcha kiskartmalarning inglizcha-ruscha-uzbekcha lugati.Universitet nashriyoti., 2001.
4. M.Payk, D.Gibbons,D.Foks,A.Vestenburg ,D. Kreven. Internet (entsiklopediya, rus tilida),S.-Peterburg, 1996,635b
4. A.Sh. Daliev, B.J. Boltaev, M. Maxkamov. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. 11- sinf uchun kullanma. Toshkent 1999.

Amaliy mashg'uotga doir TOPSHIRIQLAR:

1. Qo'yidagi zamonaviy axborot texnologiyalari o'quv vositalari haqida internetdan ma'lumotlarni olib, konspekt yozing: kompyuter sinflari, multimediali-proyektor, elektron doska, Smart mobil qurilmalari hamda ular bilan ishlash usul va vositalari. Qo'yidagi saytlarga kirib, Smart Board elektron doska haqida ma'lumotlarni o'rganing:

1. <http://smartboard.com.ua/ru/main.htm> - SMART Board boshlovchilar uchun.
2. SMART Board начинаящим –Interaktive texnologiyalar.
3. <http://www.smartboard.ru/view.pl?mid=1125315109> – SMART namunali o'qituvchi ko'rígidiagi bir necha draslar ko'rsatilgan.
4. SMARTinteraktive doskaga bir necha darslar – <http://edcommunity.ru/>.
5. Turli tizimli va boshqa ko'rinishdagi ilovalar tasnifi va tavsifi, foydalanish tartibi haqida ma'lumotlarni internetdan o'rganing va konspekt qiling. Ruscha va inglizcha ma'lumotlarni bu haqida internetdan topib, o'zbek tiliga o'girib yozing.

Asosiy adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing
2. Gromov YU.YU. Informatsionnye texnologii. Tambov 2015
3. Zaxarova I.G. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. Moskva ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk Britaniya/ Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.
5. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya/ Palgrave Macmillan 2013, 183p.
6. Hartoyo.(2012). ICT in Language Learning. Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing
7. R.R.Bokiyev, A.O. Matchanov, Informatika, "O'qituvchi", Toshkent, 2010, 374 bet.
8. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. T., 2010

Qo'shimcha adabiyotlar

9. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

10. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson mafsaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.

11. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlар strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-soni Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda 13. Mirziyoy SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. – 46 b.

15. Esteras, S.R., & Fabre, E.M.(2007) Professional English in Use for Computers and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press.

16. Kerres Michael. Mediendidaktik. 4., überarbeitete und aktualisierte Auflage. Oldenbourg Verlag. München. 2013.

17. Gerardo Arrarte Carriquiry. Las tecnologias de la informacion en la enseñanza de español. Arcolibros. España 2011

18. Petko Dominik. Einführung in die Mediendidaktik. Beltz Verlag. Weinheim und Basel. 2014.

19. Mrs. C.Y. Munasinghe, B.Sc. (OUSL); M.Sc. (Colombo) ICT SKILLS, 2013, Open University of Sri Lanka, p.-393

20. Yu.Yu.Gromov, I.V.Didrix, O.G.Ivanova, M.A.Ivanovskiy, V.G.Odnolko Informatsionnye tekhnologii. Izdatelstvo FGBOU VPO «TGTU», Tambov. 2015, 260 str.

21. Chris Abbott ICT: Changing Education, London and New York, Routledge Falmer, 2001, 45p.

22. Olifer V.G. Kompyuternye seti. Prinsipy, tekhnologii, protokoly. Uchebnik dlya vuzov. Piter, 2015 g. ISBN 978-5-496-01967-5. 992str.

23. Simonovich S.V. Informatika. Bazovyy kurs. Uchebnik dlya VUZov. Piter, 2013 g. ISBN 978-5-496-00217-2, 978-5-459-00439-7. 637str.

24. Gubanov D.A., Novikov D.A., CHxartishvili A.G. Sotsialnye seti. Modeli informatsionnogo vliyaniya, upravleniya i protivoborstva. 2010 god. 228 str.

25. Maksimov, N. V. Sovremennye informatsionnye tekhnologii: ucheb. Posobie/N.V. Maksimov, T.L.Partyko, I.I.Popov. — M: FORUM, 2008. - 512s:il.

26. Govard, D.Sozday svoyu fotoistoriyu. Delimsya vospominaniyami s pomoshchyu PhotoshopElments i sifrovoy kamery=Buduše vospominaniy. Kak podelitsya momentami svoey jizni s pomoshchью PhotoshopElments i sifrovoy kamery / Deyn Govard. - M.: NT Press, 2008. - 208 s.

27. Sifrovoe budushee. Katalog nauchykov media- i informatsionnoy gramotnosti /avt.: A. YU. Dombrovskaya i dr.; per. s angl. O.V.Tereshkina; YUNESKO. – Moskva: Mejregionalnyy sentr bibliotechnogo sotrudничestva, 2013. – Origin. tekst podgot. Fondom «Sovremennaya Polsha».

Asosiy adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology. Express Publishing
2. Gromov YU.YU. Informatcionnye tekhnologii. Tambov 2015
3. Zaxarova I.G. Informatzionnye tekhnologii v obrazovanii, ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk Britaniya/ Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.
5. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya/ Palgrave Macmillan 2013, 183p.
6. Hartoyo.(2012). ICT in Language Learning. Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing
7. R.R.Bokihev, A.O. Matchanov, Informatika. "O'qituvchi". Toshkent, 2010, 374 bet.
8. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter tekhnologiyalari asoslari. T., 2010


Amaliy mashg'ulot №2. Taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari.

Amaliy amshg'ulotnik texnik vositalari: videoproektor, multiproyektor, notebook yoki kompyuter Pentium 4.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Taqdimot yaratishning zamonaviy usullarini o'rgatish.

Amaliy mashg'ulotning bayoni:

Prezida noldan noyob va o'ziga xos prezentatsiyalarni yaratish mumkin.



Rasm 15. Prezi taqdimotlar yaratishda ishlash.

Prezi - bu juda qiziqarli dastur bo'lib, uning yordamida siz taqdimotlarni yaratishingiz mumkin, bu dasturning eng yaxshi tomoni shundaki u murakkab, juda ko'p variantli, shuningdek, har jihatdan ajoyib interfeysga ega.

Murakkab, ammo ayni paytda intuitiv va oddiy, Bu erda sizga kerakli barcha variantlar juda yaxshi joylashtirilgan, shuning uchun har qanday foydalanuvchi uchun iloji boricha qulayroq bo'lishi mumkin. Ushbu dasturni kompyuterlar uchun ishlashni xohlaysizmi yoki Android va hatto iOS uchun dasturdan foydalanishni xohlaysizmi, ularning versiyalari mavjud platformalar bor.




Rasm 16. Prezi.

Prezi juda kuchli muharrir

Prezi - kashf qilish uchun taqdimot dasturi va fikr almashishni maqsad qilgan xizmat sifatida bulutli hisoblash dasturiga asoslangan virtual hujjatdir.

Ilova o'zining grafik interfeysi bilan kattalashtirish bilan ajralib turadi, bu foydalanuvchilarga taqdimotni yaqinroq ko'rinishi yoki taqdimot maydonidan uzoqda, 2,5 o'lchovli bo'shliqda amalga oshiriladi. Bu dastur haqida gapiramiz, juda murakkab dastur, bu yerda sizga nafaqat matnni, balki kerakli barcha rasmlarni ham qo'shishga ruxsat beriladi, bundan tashqari tovushlar va videolarni tahrirlashdan tashqari jozibali va puxta prezентatsiyalar yaratishning mumkin. Bu chiziqli va chiziqli bo'limgan ma'lumotlar o'tasida ko'priк platformasi va fikr almashish uchun taqdimot vositasi sifatida ishlatalidigan web-sahifadir. Bepul yoki tuzilgan shakl. Matn, rasmlar, videolar va boshqa vositalar bir joyga joylashtirilgan va ularni ramkalarga birlashtirish mumkin. Keyinchalik, foydalanuvchilar nisbiy hajmini belgilashda, taqdimotdagи barcha ob'ektlar orasidagi pozitsiyani inobatga olish, qolaversa, ular qanday harakat qilishlarini avvaldan o'ylab amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, taqdimot yaratishni huddi

aql xaritasini yaratish bilan o'xshatish mumkin. Yakuniy prezentatsiyalar webbrauzer oynasidan yuklab olinishi mumkin. Prezi freemium modelidan foydalaniadi; Istalgan foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan taqdirda uni bepul ishlatalishi mumkin, ammo to'laydiganlar oflaysn rejimda ishlash yoki dastur ichida rasmlarni tahrirlash vositalaridan foydalanish kabi xususiyatlardan foydalanishlari mumkin. Talabalar va o'qituvchilar uchun maxsus litsenziyalar mavjud. Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar hozirgi kunda 75 milliondan o'tdi. Barcha hisoblar bepul umumiyyidir va har kim o'zidagi tarkibni ko'rishi mumkin, bu to'lov opsiyasi bilan oldini olish mumkin. Asosiy xususiyatlardan biri bu slaydlar ketma-ketligiga rioya qilmasdan, ma'lumotlarni sxematik ravishda tartibga solish va ularni erkin ochib berishga imkon beradi. Taqdimotda masshtabli grafik interfeysi tufayli uni umumiyy ko'rinishdan kattalashirish yoki kamaytirish imkoniyati mavjud. Taqdimot mazmuniga qarab, vizual effektlar, videolar yoki boshqa har qanday tarkib amalga oshirilishi mumkin. Prezining har qanday versiyasida shablonlar mavjud, taqdimot yaratishda foydalanuvchiga vaqtini tejashta imkon bering, shu jumladan yaratilgan taqdimot foydalanish uchun qo'llanma hisoblanadi. Ba'zi foydalanuvchilar Prezining zoom interfeysi va uni ishlab chiqarishi mumkinligini tanqid qildilar haddan tashqari vizual stimulyatsiya deb aytishdi. Ushbu muammoni hal qilish uchun kompaniya foydalanish bo'yicha tavsiyalar bilan qo'llanmalarini taqdim etadi. Bu vositaturli vaziyatli interaktiv taqdimotlarni yaratuvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchi ham o'rta maktabda o'qishidan qat'iy nazar, biron bir ishni taqdim etishni so'rab qolinadi, unda u nafaqat Power Point dasturidan, balki yana ham interaktiv bo'lgan dasturdan foydalanishi zarur. Prezini yuklab olishni tugatgandan so'ng, hamma narsa ko'proq bo'ladi, biz interaktivlik, jozibalikni e'tiborga olmoqdamiz, dasturni esa: oddiy, dinamik va hatto professional, oqlangan va to'liq dastur deb aytishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu juda ko'p sonli variantlar orasida taqdimotingizni jozibali qila olishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dastur hatto 2.5D formatdagi hamma narsalarni kattalashtira olishi, boshqa shunga o'xshash dasturlarda ko'rinxaydigan ajoyib effektni bera oladi.



Rasm 17. Prezi Power Pointning ekvivalenti.

Prezi - bu steroidlarda PowerPoint-ning ekvivalenti

Haqiqat shundaki, hech bo'limganda PowerPoint taqdimotlarida taqdim etadigan barcha narsalardan ustundir, bir qator juda qiziqarli variantlarni foydalanuvchiga taqdim eta oladilekin, ikkala dastur ham o'xshash funktsiyalarga ega bo'lgan joylari ham bor. Prezida barcha narsalar zamonaviyroq tarzda foydalanuvchiga taqdim etilgan va shu bilan birga foydalanuvchiga yanada optimallashtirilgan usul bilan hamda yanada yaxshiroq va ancha oqlangan natija bilan beriladi. Shuning uchun, Prezi o'zidan ham ustun bo'lgan dastur, Taqdimotlarni tahrirlaydigan klassik dastur emas, balki yanada zamonaviyroq dasturlardan biridir. Sizga bir dunyo imkoniyatlarni taklif qiladigan narsa, turli xil variantlar ni beruvchi vosita, shuning uchun kerakli prezентatsiyalarni samarali, tezkor va zamonaviy tarzda yaratishingiz mumkin. Prezini yuklab olishni istasangiz, bu umuman murakkab emas va bir necha soniya ichida buni amalga oshirasiz, keyin esa undan zavqlanishingiz mumkin. O'zingizning prezентatsiyalariningizni tahrirlash uchun juda murakkab va to'liq dastur. Prezida taqdimot yaratish uchun mana bu resursga murojaat qiling: prezi.com. 2016 yilda taqdimot yaratish bo'yicha

musobaqa bo'ldi. Chiroyli dizaynlardan biznessda va taqdimotda foydalanish mumkinligini aniqladik. Musobaqada g'oliblar turli nominatsiyalar bilan g'olib bo'lishdi va Prezi eng kuchli, chiroli dizaynlar qilish variantlari bor dasturligini isbot qildi. G'olibni aniqlash uchun "Eng yahshi dizayn" nominatsiyasi o'tkazilgan. Bunda ijod va mahorat, balki Yaratuvchilarning mehnat talab qiladigan ishlarini ham hisobga olingan. Bu dastur vizual rivoyatning ajoyib namunasidir, yaxshi tanlangan metaforalarning kombinatsiyasi, detallashtirish va ekspert Zoom (Image o'sish) ko'rinishidagi varianti. Prezi juda ham qiziqarli va maroqli ishlashni tashkil etadi. Eng yahshi biznes bo'yicha nominatsiyasida ham prezzi o'z mahoratini ko'rsata oladi. *Turli nominatsiyalar soni oshib bordi. Ularda Prezi o'z imkoniyatlarinin ochib berdi, ularning ko'p variantliligin ko'rsatdi.* Eng yahshi kattalashtirishda ham Prezining o'mi bor. Eng yahshi shablon dizayni ham Prezida mujassam. Shablon rezyumelaridan charchadingizmi? Kadrlar ham. David Malxart. Bu yil nominatsiyada g'olib bo'lgan "Eng yahshi shablon dizayni", odatdagi rezyumeda favqulodda yondashuvdan qanday foydalanishni ko'rsatadi.

Nima uchun biz bu ishni tanladik: Dovuddan zavqlanadigan kattalashtirish va ijodiy yondashuv bilan birgalikda foydalanishni istaganlar uchun talabchan shablonni talab qiladi, yangi usul qo'llaniladi. Eng yahshi yutuqda ham Prezining ahamiyati katta. Prezida faktlar audio va vizual tarkib bilan taqdimotni berish bilan bir qatorda, ular ekranda uchraydigan voqealar bilan bog'liq bo'lib, u sizni tabiat bilan murakkab munosabatlар bilan ta'minlaydi. Prezining ham hamjamiyati bor. U turlisha shunday musobaqalarni o'tkazib turadi. Bu hamjamiyat juda ko'p loyihalarni amalga oshirdi. Prezi dasturi yuklanadi. Prezi yuklangandan so'ng uning shablonlari ochiladi. Prezining shablonlari tayyor bo'ladi, ularning ko'rinishini, o'lchamini o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi, buni sichqoncha yordamida amalga oshiramiz. Bundan tashqari bizga toza prezzi ishchi stoli beriladi, bunga biz tayyor shablondan yangi grafiqlarni ko'chirishimiz mumkin bo'ladi. MS Power Point dasturiga nisbatan uning effektivligi yuqori undan turli hil animatsiyalar, jadvallar, videolartsh yana da ығиғофкфдшкшт ishlatish mumkin.


Taqdimot muharrirlarining maqsadi turli jarayonlar uchun taqdimotlar yaratishdan iborat. Bu maqsadda MicroSoft firmasi foydalanuvchilarga Power Point dasturini yaratgan. Slaydlar yaratishning usullarini Power Point 2016 varianti orqali tanishamiz. Power so'zining ma'nosi "biror bir narsaga jon bag'ishlash" yoki "qurilmalarni yoqish" kabi ma'nolarni anglatadi. Point so'zining ma'nosi esa "nuqta" degani. Demak, Power Point so'zining ma'nosi "nuqtani ishlatish", "nuqtaga jon kiritish" ma'nolari bilan mos keladi. Power Point taqdimot yaratish dasturlari ichida eng yaxshisi va qulay dastur hisoblanadi. Sababi WORD, Excel dasturlari bilan ishlashni o'rgangan foydalanuvchilar uni tez o'zlashtiradilar. Ma'ruzachi biror axborotni tinglovchiga yetkazishda namoyish materiallaridan foydalanadi.

Namoyish materiallari qog'oz, elektron, plyninka, va prospektlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Power Point ushbu ko'rinishdagi namoyish materiallarini tayyorlashda qo'llaniladigan asosiy dastur hisoblanadi. Power Point dasturida inson faoliyatidagi (biror sohada) namoyish uchun to'plangan materiallarni slaydlarga joylashtirish, ularni multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob'yektlardan foydalaniib shakkantirish, masalan: matn mazmunini rasm ko'rinishida tasvirlash, maxsus effektlar yordamida bezash orqali tezkor taqdimotlar yaratishni ta'minlaydi. Power Point dasturi va uning ish oynasi Power Point dasturida ikkita asosiy tushuncha mavjud, slayd - multimedia tizimlarini ko'rsatuvchi sahifa va taqdimot - slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, u bitta faylda saqlanadi. Power Point boshqa dasturlar bilan chambarchas bog'langan. Power Point taqdimotlarini yaratishda Word matnlarini, Excel elektron jadvallarini va grafikani bog'lash mumkin.

MS Power Point dasturi yordamida turli mazmundagi ma'ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjalarni slaydlar tarzida tayyorlash mumkin. POWER POINT dasturining imkoniyatlari quyidagilardan iborat: • Taqdimot (prezentatsiya) va slaydlar tashkil qilish; • Rasm va grafiklarni slaydlarga joylashtirish; • WEB uchun taqdimot (prezentatsiya) tashkil qilish; • Internetda

hamkoplikda ishlash; • MS OFFICE dasturlari bilan hamkoplikda ishlash. Power Point 2016 dasturini ishga tushirish Power Point 2016 dasturini yuklashdan oldin Windows 10 amaliyot tizimi dasturini yuklash lozim. Bu esa sodda, ya'ni hozirgi paytda kompyuter yuklanishi bilan amalgalashadi. Power Point dasturini yuklash jarayoni quyidagicha: "Sichqoncha" ko'rsatkichi ekranning quyi qismida joylashgan Пуск (Start) tugmachaiga keltirilib chap tugmasi bosiladi. So'ngra ekranda hosil bo'lувчи dasturlar ro'yxatidan PowerPoint 2016 tanlanadi va "sichqoncha" chap tugmasi bosiladi: Natijada kompyuter ekranidagi quyidagi boshlang'ich oynadan dastur taklif qilayotgan slaydlarning ko'rinishlardan biri, masalan, [Пустая презентация] tanlanadi. Natigada ekranga Power Point 2016 dasturining ish oynasi hosil bo'ladi: Tez foydalanish paneli – foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun tez-tez foydalanib turiladigan buyruqlarning belgisini joylashtirish va zarur bo'lganda foydalanish imkonini beradi. Unga yangi buyruqlarni qo'shish uchun panelning oxiridagi tugmaga kelib "sichqoncha" chap tugmasini bosish kerak. So'ng ro'yxatdan kerakli buyruqlarni tanlash lozim. Sarlavha satrida ayni vaqtida tayyorlanayotgan hujjatning (faylning) nomi va muharrirning nomi aks etadi. Excelda tayyorlanayotgan taqdimot (презентация) deb

nomlanadi.



Rasm 17-a. Power Point dasturining bosh menyusi.

Dasturning **Файл** lentasi fayllar ustida turli amallarni bajarishga imkon beruvchi buyruqlardan tashkil topgan: Сведения - fayl haqida turli ma'lumotlarni olish; Создать – yangi fayl hosil qilish; Открыть – mavjud faylni ochish; Сохранить – faylni saqlash; Сохранить как – faylni boshqa nomda saqlash; Печать – faylni chop etish; Закрыть – dasturni yopish.

2. Dasturning **Главная** - bosh lentasi Windows buferi bilan ishslash (Буфер обмена), slaydalar yaratish (Слайды), slaydlardagi shrift turlari, o'chhami, ko'rinishlarini o'zgartirish (Шрифт), abzatslar bilan ustida turli amallar bajarish (Абзац), slaydlarga turli shakl va rasmlar qo'yish (Рисование) hamda slaydlarni tahrirlashga (Редактирование) imkon beradi:

3. Dasturning menyusidagi bo'limi **Вставка** – qo'yish, o'matish lentasi slaydlar hosil qilish, jadvallar, shakllar, diagrammalar, havolalar, turli ob'yektlar matnlar, izohlar va belgilarni hamda multimedia amallarini (videoyozuv, ovozlarni) slaydlarga qo'yish uchun zarur bo'lgan buyruqlardan tashkil topgan:

4. Dasturning **Дизайн** – dizayn lentasi yordamida taqdimot mavzusiga mos ko'rgazmali ko'rinishlarni tanlash, turli variantlardan foydalanish, slayd o'chhamini va fonini o'zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin:

5. Dasturning **Переходы** - slaydlarga o'tish lentasi slaydlarni ekranga turli effektlarda chiqishini ta'minlab, slaydlarni ovoz bilan chiqishi va slaydlarni almashish vaqtini belgilashga imkon beradi:

6. Dasturning **Анимация** - ob'ektlarga animatsiya (harakat) berish lentasi buyruqlari animatsiya elementlarini qo'yish, animatsiya effektlarini o'matish, animatsiya sohasini belgilash, animatsiya tartibini o'zgartirishga mo'lidlangan:

7. Power Pointning **Слайд-шоу** lentasi yordamida slaydlarni ko'rishni boshlash, ko'rish vaqtini belgilash va slayd-shoyni sozlash kabi amallarni bajarish mumkin:

8. Dasturning navbatdagи **Рецензирование** – taqrizlash lentasi buyruqlari slaydlarda imloni tekshirish, yozuv tilini o'zgartirish, slaydlarga izohlar qo'yish, yozuvlarni qo'lyozma ko'rinishda yozish kabi amallarni bajarishga imkon beradi:

9. Power Point dasturining **Вид** - ko'rinish lentasi slaydlarni ko'rish rejimi xususiyatlarini o'zgartirish, masshtablar, oynalar va makroslar bilan ishlashga xizmat qiladi:

– Рецензирование;

– Слайд-шоу;

– Анимация;

– Переходы;

– Дизайн;

– Вставка;

– Главная;

– Файл;

– Agar yangi hujjatga nom berilmagan bo'lsa, u

holda doimiy qabul qilingan birinchi hujjat uchun Презентация ikkinchisi uchun Презентация va hokazo nomlar beriladi. POWER POINT dasturi lentalari Power Point 2016 dasturida quyidagi lentalardan foydalaniladi.

Kompyuterda qanday qilib prezentsiya qilish mumkin? Odatda buning uchun foydaluvchilar mavjud Power Point dasturidan foydalananadilar, chunki u allaqachon MS Office yordam dasturlari paketida ўфмогв. Agar siz qiziqarli va sifatli ish qilishni xohlasangiz, uni jalb qilish juda muhimdir yaxshi material... Bugungi nashrda biz fotosurat bilan bosqichma-bosqich to'liq ko'rsatmani ko'rib chiqamiz.

Windows 7 yoki boshqa versiyada kompyuterda taqdimot qilishdan oldin, natija iloji boricha mazmunli va to'liq bo'lishi uchun yaxshilab tayyorgarlik ko'rish kerak. Keling, fotosuratlar va musiqa yordamida slayd -shou qanday qilishni ko'rib chiqaylik.

Bir nechta manbalar bo'lishi mumkin:

- Birinchidan, matnni to'ldirish. Tarkibni mavzuli kitoblardan olish mumkin bosma nashrlar, elektron analoglari. Nihoyat, siz mavzudagi referatlar va ma'ruzalardan, saytlardagi turli nashrlardan foydalanishingiz mumkin.
- Ikkinchidan, rasmlar, sxematik grafikalar, diagrammalar bilan slaydlarni to'ldirish mumkin. Kontentingizning ko'p qismi mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa yaxshi bo'ladi. Shaxsiy rasmlar, chizmalar ajoyib qo'shimcha bo'ladi. Grafika va boshqa sxemalarini mustaqil ravishda, yaxshisi maxsus muharrirlar yordamida chizish oson.
- Uchinchidan, musiqa va video. O'zingizning musiqiy kompozitsiyangizni yoki videongizni yaratish ancha qiyin va ko'p vaqt talab etadi. Shuning uchun vaqt va kuchni tejash uchun siz boshqa manbalardan olingen materiallardan foydalanishingiz mumkin.

Agar taqdimot kompyuterda Power Point dasturida yaratilayotgan bo'lsa, taqdimotning konturini ko'rib chiqish juda muhimdir. Slayd -shou va taqdimot


davomiyligini malakali taqsimlash sizga mavzuni yaxshiroq tushunish va kengaytirish imkonini beradi.

Qisqa nutqlar uchun katta videolarni qilmang. Matnni tinglovchilarga tarqatish uchun barcha asoslar va barcha qo'shimcha lavhalarni qisqacha qayd etish kerak.

Asosiy sahifalarni qanday yaratish mumkin?

Materialni tayyorlab, reja olgandan so'ng, siz taqdimot yaratishni boshlappingiz mumkin. U alohida slaydlardan iborat. Windows 8 yoki kompyuteringizning boshqa OS versiyasida Power Point dasturini ishga tushiring va shu yo'lni bajaring:


Bosh sahifa / Slaydlar / Slayd yaratish / Sahifalar qo'shish.



Rasm 18. Power Point dasturi.

Ustunning chap tomonida slaydlar tartibini o'zgartirish va ularni yo'q qilish funktsiyasi mavjud. Keraksiz narsalarni o'chirish uchun siz tegishli qismni tanlashingiz va "O'chirish" ni bosishingiz kerak.

Amallarni bajargandan so'ng, siz bo'sh slaydni olasiz. Siz mos keladigan menu orqali elementlar ketma -ketligini o'zgartirishingiz mumkin - birinchi navbatda, navigatorda sichqonchaning o'ng tugmachaсинi bosing. Menyudan "Layout ..." -ni tanlang va ochilgan ro'yxatda sizga kerak bo'lganini tanlang.



Rasm 19. Power Pointda ishlash.

Yana sahifalar qo'shing. Dastlab, ular bo'sh qoladi, ular bezatilgan bo'lishi kerak. Buning uchun navigatorda sahfani tanlang. Nihoyat, "Dizayn" yorliqlari ostiga qarang.

"Mavzular" bo'limida xuddi shu tugma mavjud, uni bosish orqali siz mavjud bo'lganlar ro'yxatini ochasiz. Sizga yoqqanini tanlang va tashqi ko'rinish o'zgarmoqda.



Rasm 20. Power Pointda ishlash. Shablolar tanlovi.

Matnli kompyuterda taqdimotni qanday qilish kerak

Agar siz, masalan, matn tarkibini qo'shishga qaror qilsangiz, maxsus bloklardan foydalанишингиз kerak. Siz matn qismini chop etishingiz yoki nusxasini olishingiz


mumkin. Bloklarning joylashishini sichqoncha yordamida tezda o'zgartirish mumkin, shunchaki maxsus ramkani sudrab tashlab yuborish mumkin, shuning uchun uni boshqarish oson.



Rasm 21. Taqdimot yaratish.


Jadvallar va grafiklar qanday tuziladi

Bu grafik diagrammalar turli jarayonlarni taxlil qiladi. Grafikni yuqori menyuda "Qo'shish" yorlig'i yordamida qo'shish mumkin. "Tasvirlar" bo'limida yaratish oynasini ochadigan diagrammalar yorlig'i mavjud. U erda siz kompyuterda mavjud assortimentdan diagramma turini tanlaysiz.




Rasm 22. Taqdimotga diagramma qo'yish.

Parametrlarni o'zgartirishga yordam beradigan elektron jadval ochiladi. Barcha o'zgarishlar darhol diagrammada aks etadi.



Rasm 23. Taqdimot yaratish.




Jadvalni kiritish uchun yuqori menyudagi jadvalni tuzish bilan bir xil yorliqdan foydalaning. Chap tomonda "Jadval" bloki va konfiguratsiya oynasini faollashtiradigan tugma mavjud. Plitalar katakchalari matn maydonlari bilan bir xil tarzda to'ldiriladi.


Rasm 24. Taqdimotga diagrammalar qo'yish va ularni sozlash.

Rasmlar qanday qo'shiladi va bezatiladi

Eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, tematik tasvirlar sizning taqdimotingizni kompyuterda yanada ma'lumotli qiladi. Bitta rasmni bitta slaydga joylashtirish yaxshiroq, lekin yuqori sifatli. Siz uni diagramma bilan bir xil yorliqdan kiritishingiz mumkin, lekin bu erda "Rasm" kichik bandidan foydalanish kerak.



Rasm 25. Taqdimot yaratish jarayoni.



Rasm 26. Taqdimotga audio va videolar o'ish.

Kompyuteringizga video va audio qo'shing

Multimediali kontentdan faqat kerak bo'lganda foydalanish mumkin. Ular batasil hisobot tuzish yoki qiyin mavzularni tushuntirish uchun ajralmas bo'ladi. Audio / video yuqori menyuning maxsus "Qo'shish" yorlig'idan qo'shiladi. O'ng tomonda "Media kliplari" bloki mavjud. Uni bosgandan so'ng, qo'shilgan fayl turi paydo bo'ladi. Siz faqat materiallari bo'lgan papkadan kerakli birini tanlaysiz. Natijada, video sahifaning ochilishi bilan o'yнay boshlaganligi to'g'risida bildirishnomasi ochiladi.



Rasm 27. Taqdimot yaratish.


Slaydlarni siljitim uchun animatsiya qo'shish

Taqdimotga dramatik o'tishlarni qo'shish yaxshiroqdir. Navigatorda kerakli sahifani tanlang va menyudan "Animatsiya" ga o'ting.

"O'tish sxemasi" tugmchasini bosish orqali o'tishlarning butun assortimenti ro'yxati ochiladi. Tanlangan o'tish faqat tanlangan sahifa uchun ishlatalishini unutmang. Har biri uchun uni qo'lida o'matish kerak.

tarzda yaxshiroq idrok etadiganlar uchun juda muhim va bunday odamlar, olimlarning fikriga ko'ra, taxminan 30%ni tashkil qiladi, ya'ni. har uchdan birida. Ushbu namoyish usuli "taqdimot" deb nomlanadi va u erda keng qo'llaniladi turli sohalar: dizayn, marketing, iqtisod, pedagogika, muhandislik va boshqalarda.

Ta'lim jarayonida g'oyalar va natijalarni ko'rsatish, qiyosiy tahlil qilish uchun o'quv jarayonlarida o'zgarmasdir.



Rasm 31. Taqdimotni yaratish jarayoni.

PowerPoint dasturi yordamida kompyuterda taqdimot yaratishingiz mumkin. Uning yordamida 95% taqdimotlar tayyorlanadi. Bu standart Office to'plamining bir qismi. Microsoft Office PowerPoint-bu eng yuqori talablarga javob beradigan turli xil taqdimot loyihalarini amalga oshirish uchun qulay, ishonchli va ma'lumotli dastur.

PowerPoint yordamida siz yaratishingiz mumkin samarali vosita og'zaki yoki yozma taqdimot bilan birga. Dastur sizga grafikalar, diagrammalar, fotosuratlar yaratishga imkon beradi, har xil maxsus effektlarni o'z ichiga oladi, bu sizga unutilmas yorqin loyihani yaratishga imkon beradi.

Asosiy narsalarni o'rganishga vaqt ajrating PowerPoint dasturlari- bu o'z-o'zini rivojlantirish va ta'lim sohasiga foydali sarmoya kiritish, chunki hamma ertami-kechmi ma'ruzalar, ma'ruzalar va namoyishlar qilishi kerak.

PowerPoint yordamida taqdimot yaratish (standart Microsoft dasturi)

Power Point -ni kompyuteringizda Windows Search -dan foydalanib topishingiz mumkin.

Eng muhim qoida - bu taqdimot sizning ma'ruzangiz yoki nutqingizning o'rmini bosa olmaydi, balki faqat so'zlariningizni tasvirlab, uni to'ldiradi va asosiy fikrlarga e'tibor qaratish imkonini beradi. Shuning uchun siz avval nutq rejasini yaxshilab o'ylab ko'rishingiz va shundan keyingina taqdimot qilishingiz kerak.

Qadam 1. Biz taqdimotning barcha tafsilotlarini hisobga olamiz!


Taqdimotni yig'ishdan oldin o'zingizga beradigan eng muhim savollar:

- ❖ Mening taqdimotimdan asosiy maqsad nima?
- ❖ Mening tinglovchilarim / tomoshabinlarim qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?
- ❖ Muddati, mazmuni va dinamikasi qanday?

Qadam 2. Keling, boshlaylik!

1. Evans V., Dooley J., Wright S. *Information Technology* Издательство: Express Publishing .
2. Громов Ю.Ю. Информационные технологии. Тамбов 2015
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. Москва ACADEM'A 2003
4. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Буюк Британия/Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Симонович С.В. Информатика. Базовый курс. Учебник для ВУЗов. Питер, 2013
г. ISBN 978-5-496-00217-2, 978-5-459-00439-7. 637стр.
6. Максимов, Н. В. Современные информационные технологии: учеб. Пособие/Н.В. Максимов, Т.Л.Партико, И.И.Попов. — М: ФОРУМ, 2008. — С.512.
7. Цифровое будущее. Каталог навыков медиа- и информационной грамотности /авт.: А. Ю. Домбровская и др.; пер. с англ. О.В.Терешкина; ЮНЕСКО. – Москва: Межрегиональный центр библиотечного сотрудничества, 2013. – Оригин. текст подгот. Фондом «Современная Польша».

8. Шмыр Анна Сергеевна. «Использование программ «Hot Potatoes v 6.0» для создания интерактивных заданий, тестов и кроссвордов». Калининград-2008
9. Информационные и коммуникационные технологии в образовании:
монография / Под.редакцией: Бадарча Дендева – М. : ИИТО ЮНЕСКО, 2013.
– 320 стр.
10. Анисимов А.М. Работа в системе дистанционного обучения Moodle.
Учебное
пособие. Харьков. 2009 г. 209 стр.
11. Хамидов В., Эркин ва очик кодли LMS тизимлари, INFOCOM.UZ, 2013,
12. Докторова Е.А. Мультимедиа технологии: Конспект лекций. Часть 2: /:
– Ульяновск : УлГТУ, 2010. – 74 с.
13. Сабирова Д.А. Мультимедиа тизимлари ва технологиялари. Ўқув
кулланма -Т: ТТЭУ, 2013г
Axborot texnologiyalari:
14. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси хукумат портали.
15. www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари
маълумотлари
миллий базаси.
16. <http://Ziyonet.uz>
17. <http://www.tuit.uz>
18. <http://www.eluit.uz>
19. <http://www.moodle.org>
20. <http://Fledu.uz>
21. <http://akt.uz>
22. <http://elcarning.zn.uz>

23. <http://wiki.rdf.ru/> -Детские презентации

24. <http://www.intuit.ru>

25. <https://www.ispring.ru/>

Glossariy-atamalarning ma'nolari

Axborot (lot. tushuntirish, bayon qilish) – og'zaki, yozma yoki boshqa usulda (masalan, shartli signallar, texnika vositalar va boshqalar yordamida) berilgan, fan tilida esa, odam bilan avtomat, avtomat bilan avtomat o'rtaсиda almashinuvchi hamda manbalari va taqdim etilishi shaklidan qat'iy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hoidisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumot. Ma'lumot doimo axborot bo'lavermaydi, axborot esa doimo ma'lumot bo'la oladi. Ma'lumot inson uchun zarur bo'lsa, undagi berilganlar yangi bo'lsa va foydalanuvchi uchun o'z qiymatiga ega bo'lsa, bunday ma'lumot axborot bo'ladi.

Audio yaratuvchi dastur-bunday dasturlarga Sound Forge dasturi, Sound Forge Professional Pro dasturlari kiradi.

Axborot texnologiya - bu shunday jarayonki, unda insonlarning bir qismi axborotga muhtoj, uni oladilar, bir qismi esa axborotni jo'natadilar, y'ani ular unga egadirler va axborotni olish va jo'natishda texnik vositalardan foydalanishadi.

Axborot texnologiyalari turlari-raqamli texnologiyalar, internet, elektron pohta, bir tildan ikkinchi tilga ugirish texnologiyalari, matnni giper matnga ugirish texnologiyalari, messenjerlar, brouzerlar, electron hukumat, ijtimoiy tarmoqlar, saytlar, masofaviy o'qitish texnologiyalari, offis texnologiyalari, Google texnologiyalari, bulutli texnologiyalar, o'quv platformalar, sun'iy intellect tizimlari, expert tizimlar MOOC va boshqalar.

Axborot jamiyat - ko'pchilik ishlovchilarning axborot, ayniqsa uning oliy shakli bo'lmish bilimlarni ishlab chiqish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo'lgan jamiyatdir.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi (AAT) - boshqaruv vazifalarini hal etish uchun tizimli tashkil etilgan axborot jarayonlarini amalga oshirish usul va vositalari majmui.

Avtomatlashtirilgan boshqarish tizim - iqtisodiy-matematik usullar, texnik vositalar (kompyuter, aloqa vositalari, axborotni tasvirlash qurilmalari va hokazo) va murakkab ob'ektni qo'yilgan maqsadga muvofiq oqilona boshqarishni tashkil etish.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi - tashkilotning maqsadidan kelib chiqadigan talablarga muvofiq axborot-larni yig'ish, qayta ishlash, taqsimlash, taqdim etish uchun mo'ljallangan standart protseduralar, xodimlar, dasturiy vositalar, asbobuskuna, ma'lumotlarning o'zaro bog'lan-gan majmui; uning elementlari: axborot, texnik, matema-tik, dasturiy, tashkiliy, huquqiy va lingvistik ta'minot.

Avtomatlashtirilgan ish o'rni - yakuniy foydalanuv-chiga ma'lumotlarni ishlab chiqish va aniq muammoli sohada boshqaruv vazifalarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi axborot, dasturiy va texnik resurslar majmui.

Avtomatlashtirish – bu inson ish faoliyatini mashina va mexanizmlar bilan almashtirish, ya’ni energiya, materi-allar yoki axborotni qabul qilish, uzatish va foydalanish jarayonlarida insonni bevosita ishtirok etishdan qisman yoki to’la ozod etuvchi texnik vositalar, iqtisodiy-mate-matik usullar va boshqarish tizimlarining qo’llanishi. Adres – xotira qurilmasidagi axborot yoziladigan katakcha (yacheyka) larning nomeri.

Algoritm – ma’lum bir turkumdagи hamma masalalarni yechishda ishlataladigan amallar tizimining muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida.

Algoritmik til – belgililar to’plami va bu belgilardan algoritmlarni yozish uchun mo’ljallangan til konstruk-siyalarini tuzish va ifodalash qoidalari tizimi.

Amaliy dasturiy ta’mnoti – bu foydalanuvchining aniq vazifalarini hal etish va umuman axborot tizimi-ning hisoblash jarayonini tashkil etish uchun mo’ljallangan bo’lib, operatsion tizimlar imkoniyatlarini ken-gaytiruvchi paketlar, umumiy belgilanishdagi paketlar, avtomatik boshqarish tizimida ishslashga mo’ljallangan paketlardan iborat.

Animatsiya – bu ob’ektlar, kameralar, yorug’lik manbala-rini o’zaro joyini almashtirish yoki ularning para-metrlarini vaqt bo'yicha o’zgarishiga ega vazifa, topshiriq.

Animatsiya yaratuvchi dasturlar-Power Point, Macromedia Flash dasturlari yordamida animatsiyalar yaratish mumkin.

Antivirus dasturi – bu kompyuter viruslarini aniq-lash, ularni o’chirish va ularidan muhofazalash uchun ishlab chiqilgan dastur bo’lib, uning turlari: detektor dasturi; doktor (davolovchi) dastur; revizor (taftish) dasturi; filtrli dastur; vaksina yoki immunitet hosil qiluvchi dastur.

Analog (uzluksiz) signallar – biror ma’lum vaqt oralig’ida cheksiz ko’p qiymatga ega bo’ladigan uzluksiz signallar.

Approksimatsiya – matematik miqdorlarni ulardan soddaroq bo‘lgan miqdorlar orqali taqrifiy ifodalash.

Arxivlash dasturlari – diskda joyni tejash maqsadida fayllar hajmini kichraytirishga imkon beruvchi dasturlar. 6 Arxivni ochish – arxiv faylda joylashgan fayllarni asl holatiga qaytarish.

Arxiv fayl – siqilgan holda yagona faylga birlash-tirilgan bir yoki bir necha faylning yagona ko‘rinishi.

Audiopochta – telefon orqali pochta xabarlarini ovoz bilan yuborish uchun mo‘ljallangan tizim.

Axborot zaxiralari (resurslari) – bu alohida hujjat va alohida hujjatlar to‘plami, axborot tizimlari (kutub-xona, arxiv, fond, ma’lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) dagi hujjatlar va hujjatlar to‘plamidir. Bu ta’lim tesurlari ham bo‘lishi mumkin.

Axborot izlash tizimi – kerakli axborotni saqlash, izlash va kerak bo‘lganda berish (chiqarish) uchun ishlataladigan vositalar to‘plami.

Axborot tarmog‘i – aloqa tizimlarida kompyuter-larning bir biri bilan bog‘lanishi.

Axborot texnologiyasi – ob’ekt (axborot mahsuloti)ning holati, jarayon yoki hodisaning yangi xususiyati to‘g‘risi-dagi axborot olish uchun ma’lumotlarni to‘plash, ularga ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullari majmuidan foydalaniladigan jarayon, boshqacha aytganda, axborotlarni yig‘ish, uzatish, to‘plash, qayta ishslash, saqlash, taqdim etish va foydalanish usulblari va usullari tizimi; uning maqsadi – axborot ishlab chiqarish bo‘lib, uni tahlil etish va uning asosida biror bir harakatga qo‘l urish uchun tegishli qaror qabul qilish.

Axborot texnologiyasi fani – axborotlarni jamlash, saqlash, uzatish va shu jarayonlarni amalga oshiruvchi texnik vositalarni ishlatalishni o‘rgatuvchi fan.

Axborot tizimi – belgilangan maqsadga erishish uchun axborotlarni shakl va mazmuniga ko‘ra turlarga ajratish, ularni saqlash, izlash va qayta ishslash

prinsiplari, qayta ishlashda qo'llaniladigan usullar, shaxslar hamda vositalar (odamkompyuter)ning o'zaro bog'langan majmui.

Axborotga ishlov berish – texnologik jarayoni belgilan-gan ketma-ketlikda bajariladigan operatsiyalar majmui bo'lib, bundagi operatsiyalar: dastlabki axborotni to'plash, birlamchi ishlov berish va ro'yxatga olish (birlamchi tashuvchilarda qayd qilish); ma'lumotlar va abonent-larning so'rovlarni aloqa kanallari bo'yicha uzatish; ma'lumotlar va so'rovlarni qabul qilish va hisobga olish; qabul qilingan axborotning ishonchliligini nazorat qilish va xatolarini bartaraf etish; ma'lumotlarni tashuvchi mashinalarga ko'chirish va ko'chirishning to'g'riliqini nazorat qilish; ma'lumotlarni EHMga kiritish kiritish to'g'riliqini nazorat qilish;

ma'lumotlarga mashina ichida ishlov berish va chiqish axborotini tuzish; chiqish hujjatlarini tayyorlash va ularni foydalanuvchiga uzatish.

Axborotga mashina oldi ishlov berish – axborotni to'plash, ro'yxatga olish, dastlabki ishlov berish, ma'lumotlarni mashina tashuvchilarga ko'chirish, ma'lumotlarni aloqa kanali bo'yicha uzatish, shuningdek nazorat operatsiya-larini bajarishni ko'zda tutadi.

Axborotga mashinada ishlov berish – foydalanuvchilar-ning so'rovlari amalga oshirish uchun bajariladigan (izlash, saralashning foydalaniladigan usullari bilan) ishlov berish jarayonlari harakteri bilan va axborot massivlarini yuritish jarayonlarini tashkil etilishi bilan belgilanadi.

Axborotga mashinadan keyingi ishlov berish – chiqish ma'lumotlarini taqdim etishning talab etiladigan shakllarini, chiqish shakllarini tasvirlash yoki ularni axborot tashuvchilarda qayd qilish, chiqish shakllarini foydalanuvchilar yoki ilovalarga uzatishni ta'minlaydi.

Axborotlashgan jamiyat – bu tuzilishi, texnik bazasi va kishilik salohiyati bilimlarni axborot resurslarga muvofiq aylanishi va passiv shakllardagi (kitoblar, maqolalar, patentlar va hokazo) faollarga (modellar, algoritmlar, dasturlar,

loyihalar) aylantirish maqsa-dida ishlab chiqish uchun moslashtirilgan jamiyat. Axborotlashtirilgan axborotlar tizimi – axborotlar, axborotlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan iqtisodiy matematik usullar va modellar va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo'ljallangan texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar majmuidir.

Axborotni kodlash – axboroni ma'lumot sifatida yozish va mazmunini aynan saqlab qolgan holda axborotni boshqa shaklga o'tkazish. Axborotni soxtalashtirish — haqiqiy axborotni soxta (qalbaki) axborotga o'zgartirish. Axborotni tutish — uzatilayotgan axborotni qo'lga kiritish.

Axborotni uzatish kabeli – tarmoqda axborotni bir kompyuterdan boshqasiga uzatish uchun xizmat qiladigan o'tkazgich.

Axborotni himoyalash – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari: shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning; axborotning maxfiyligini ta'minlash, tarqalishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishining; axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish.

Axborotni himoyalash tizimi – axborotning zaif to-monlarini kamaytiruvchi va axborotga ruxsat etilmagan kirishga, uning chiqib ketishiga va yo'qotilishiga to's-qinlik qiluvchi tashkiliy, texnik, dasturiy, texnologik va boshqa vosita, usul va choralarining kompleksi.

Autentifikatsiya – foydalanuvchi yoki axborotning haqiqiy ekanligi kafolati.

Bandicam- ekranni rasmga oluvchi, video yaratuvchi dastur hisoblamadi.

Bayt – xotiraning eng kichik birligi bo'lib, sakkizta informatsion ikkili raqamlardan (8 bitdan) iborat.

Bayonoma (protokol) – kompyuterlar orasida ma'lumot-larni uzatish tartibi va formatini belgilovchi qoidalar majmui.

Bit (ing. bit – binary digit – ikkili raqam) – axborot miqdori birligi bo‘lib, «0» va «1» dan iborat. Blok-sxema – algoritmni tasvirlashning grafik usuli. Bosh kalit – ma’lumotlar bazasida saralash ishlarining tez va aniq bajarilishiga imkon beradigan jadvalning bir ustuni.

Boshqarish tizimi – boshqarish sub’ektlari – boshqa-ruvchi tizimlar va boshqarish ob’ektlari – turli tabiatli murakkab dinamik tizimlar majmui.

Videokonferensiya – biror firma yoki tashkilotning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan xodimlari yoki bo‘limlari o‘rtasida kommunikatsiyani saqlab turuvchi ikki tomonlama videoaloqa.

Virtual kanal – qayd etilgan yo‘nalish bo‘lib, u ushbu aloqa seansida barcha uyalarni bir foydalanuvchidan ikkinchisiga o‘tkazadigan kommutatorlar portlari nomerlarining ketmagnetligidan iborat.

Virtual ularish – axborotni uzatish uchun ikki yoki undan ortiq oxirgi qurilmalar o‘rtasida muayyan tarzda tuzilgan muhit.

Video yaratuvchi dasturlar- bu kompyuter ekranini qamrab olib, undagi harakat va ovozni yozuvchi dasturlar. Bularga Camtasiya studio, Bandicam, Snagit kabi dasturlar kiradi.

Vebinar – bu onlayn seninardir.

Gipermatn – boshqa matnlri hujjalarga yo‘l ko‘rsatuvchi matn.

Gipermedia – matndan tashqari multimedia imkoniyat-larini ham o‘zida mujassamlashtirgan ma’lumotlarga yo‘l ko‘rsatuvchi hujjalr.

Global tarmoq – dunyoning ixtiyoriy davlatidagi kompyuterlarni o‘zida birlashtirish imkoniga ega bo‘lgan tarmoq, bunda yo‘ldosh orqali aloqa kanallaridan foydalaniлади.

Grafyasagich – chizish qurilmasi. Dastur – qandaydir ijrochi, odatda avtomatik qurilma, ko‘pincha EHM bajarishi lozim bo‘lgan amallar (harakatlar) rejasи.

Dasturiy ta'minoti – avtomatlashtirilgan axborot tizimining elementi bo'lib, hisoblash texnikasi vosita-lari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va undan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarni jamlash.

Google Classroom-Goolening klass bilan guruhda vazifalarni bajarish uchun platformasi, LMS tizimi.

Google texnologiyalari-turli Google kompaniya tomonidanturli maqsadlar uchun foydalanuvchiga yaratilgan Google ilova dasturlari: Google Hujjat, Google Disk, Google elektron jadval, Google taqdimot, Google map, Google Books, Google Play Market va boshqalar.

Dasturlash – dastur, amal (harakat) rejasini tuzish jarayoni.

Dasturlashtirish tili – axborot va uni hisoblash mashinasida qayta ishslash algoritmlarini tavsiflash uchun mo'ljallangan, inson bilan hisoblash mashinasi muloqatining rasmiy tili (masalan, Fortran, Beysik, Paskal, Si va boshqalar).

Dasturli virus — avtonom ravishda ishlovchi, boshqa dastur qismiga o'z – o'zidan qo'shiluvchi, ishga qodir va kompyuter tarmoqlari hamda alohida kompyuterlarda tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan dastur.

Detektor — virusning signaturasi bo'yicha operativ (tezkor) xotira va fayllarni ko'rish natijasida viruslarni topuvchi dastur.

Disklarni optimallashtirish – diskdagi bo'laklarga ajralgan fayllarni diskning boshiga ko'chirib, ularning joylashishini tartibga keltirish.

Diskretlash – analog signallami raqamli ko'rinishga o'tkazish jarayoni.

Display – axborotni elektron nurli trubka ekranida vizual tasvirlaydigan qurilma.

Doktor revizorlar – fayl va diskning tizimli sohasidagi o'zgarishlarni aniqlash bilan birga, o'zgargan fayllarni dastlabki holatiga qaytara oladigan virusga qarshi dasturlar.

Yo'llovchi – kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarni manzilga yetkazuvchi dasturlar paketi.

Yopiq axborot – tarqatilishi faqatgina kafolati mavjud bo'lgan tashkilotlar tomonidan berilgan ruxsat asosida amalga oshiriladigan maxfiy axborot.

Zamonaviy axborot texnologiyasi (kompyuter axborot texnologiyasi) – bu kompyuterlarni qo'llash, foydalanuvchilarning (dasturlash sohasida kasb egasi bo'limgan-larning) axborot jarayonida faol ishtirok etishiga, «do'stona» foydalanuvchi interfeysning yuqori daraja-siga, umumiyligida muammoviy belgilanishdagi amaliy dasturlar paketini keng qo'llashga, EHМning hisoblash tarmoqlari tufayli foydalanuvchini uzoqlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va dasturlariga kiritishga asoslangan texnologiyadir.

Zamonaviy texnik vositalar-bularga videoproyektor, multiproyektor, kompyuter, Smartphone, Nootebook, planshaetlar, lingaphone kabinetlar? Ularni ishlatalishga doir VGA, HDMI kabellar, kolonkalar, web kamerasi, naushniklar va boshqalar kiradi.

Zoom platformasi - bu mahsus identifikator orqali kirib ishlashtirishga mos bo'lgan bulutli dastur. Uning yordamida onlayn konferentsiyalar, boshqacha qilib aytildi ganda webinarlar tashkil etiladi.

Ikkilik sanoq sistemasi – asosi 0 va 1 bo'lgan pozitsion sanoq sistemasi. «Inson-mashina» tizimi – moddiy boyliklar yaratish, boshqarish, axborotni qayta ishlashtirish va boshqa jarayonlarda inson-operator (operatorlar guruhi) texnik qurilma bilan birgalikda ishlaydigan murakkab tizim.

Intellektual axborotli izlash tizimlari – ish joyidan turib bilimlar bazasidagi kerakli axborotni izlashga imkon beradigan tizimlar. Intellektual tizimlar – insonning mantiqiy fikr-lash usulini qo'llagan holda masalani yechadigan tizimlar.

Internet (Internet) – xuddi shu nomdagagi jamiyat tomonidan tuzilgan xalqaro axborot tarmoqlarining global tarmog'i bo'lib, u minglab lokal va mintaqaviy

kompyuter tarmoqlarini bir butun qilib birlashtiruvchi butun dunyo kompyuter tarmog‘idir.

Internetning dasturiy taminoti – tarmoqqa ulangan kompyuterlar va tarmoq, vositalarini yagona standart asosida muloqot qilish, ma'lumotlarni ixtiyoriy aloqa kanali yordamida uzatish darajasida qayta ishlash, axborotlarni qidirib topish va saqlash hamda tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiruvchi dasturlar majmui.

Internetning axborotli qismi – internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan turli elektron hujjat, grafik rasm, audioyozuv, videotasvir va hokazo ko‘rinishidagi axborot-lar majmui.

Internetning texnik tarkibiy qismi – turli rusumdagи kompyuterlar, aloqa kanallari, tarmoq texnik vositalari majmui.

Interfeys – foydalanuvchining tili; xotiradagi axbo-rotlar va foydalanuvchining qulay muloqotini ta'min-laydigan dasturiy imkoniyat; foydalanuvchining bilimini belgilaydi.

Intranet – internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va bayonnomalari asosida tashkil etilgan, ma'lumotlar bazasi va elektron jadvallar bilan jamoa bo'lib ishlash imkonini beruvchi korxona yoki tashkilot miqyosidagi kompyuter tarmog‘i.

Informatika – ilmiy axborotning tuzilishi va umumiy xossalari, shuningdek axborotni yig‘ish, saqlash, izlash, qayta ishlash, almashtirish, tarqatish va inson faoliyatini ning turli sohalarida foydalanish bilan bog‘liq masala-larni o‘rgatuvchi fan sohasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi – davlat boshqaruv organlarining, sanoat va tadbirkorlik hamda boshqa sohalardagi axborot ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy-texnik bazani yaratishdir.

Itologiya – axborot texnologiyalari to‘g‘risidagi fan bo‘lib, uning predmeti - axborot texnologiyalari, shuningdek, ularni yaratish va qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir.

Ishchi stansiya – tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter, foydalanuvchi shu orqali axborot resurslariga kirib boradi.

Ishchi tizimlar – katta miqdordagi ma'lumotlarni saqlash, izlash, murakkab hisoblashlar, modellashtirish, dasturiy ta'minotni rivojlantirishga xizmat qiladigan vositalar. Iqtisodiy kibernetika – mashina texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganadigan fan.

Kalit (klyuch) — kriptografik o'zgartirishlar algoritmi parametrlarining maxfiy holati Katalog — fayl nomlari, uning hajmi, tashkil etilgan sanasi va boshqa xossalari haqida ma'lumotlarni saqlaydi.

Kibernetik tizimlar – kibernetika fani shug'ullana-digan murakkab boshqarish tizimlari.

Kibernetika – boshqarish tizimlari, shakllari va vositalari haqidagi hamda boshqarish tizimlariga oid umumiy qonunlarni o'rganadigan fan.

Koaksial kabel – ma'lumotlar uzatishning ikkita turli tizimi: signalni modulyatsiyalab (raqamli signal qanday shaklda uzatilsa, undan shunday shaklda foydalilanadi) va modulyatsiyalamasdan (raqamli signalni analogli signalga aylantirib jo'natiladi va qabul qilishda aksincha; buni modem bajaradi) uzatishdan foydalishga imkon beradi.

Kod (fran. qonunlar majmui) – turli axborotni uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan shartli belgilar tizimi, boshqacha aytganda, berilgan so'zlar to'plami bilan o'zaro bir qiymatli moslikka ega bo'lgan va biror–bir alifbo bo'yicha tuzilgan so'zlar to'plami.

Kodlashtirish – axborotni shartli belgilar va qoidalar yordamida belgilab, tartib bo'yicha uni bir tizimdan boshqa tizimga o'tkazish jarayoni.

Kodlashtirish tizimi – belgilar va kodlash tartiblari yig'indisi.

Kommunikatsion tizimlar – tarmoqdag'i kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash va bog'lanishlarni kommutatsiya qilish vazifasini bajaradigan tizimlar.

Kompleks himoya tizimi — huquqiy, tashkiliy, muhandis – texnik va dasturiy – matematik elementlari mavjud bo'lgan himoya tizimi

Kompyuter (ingl. Computer) – hisoblovchi, uning tur-lari: raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtirilgan; uning guruhlari: super kompyuter-lar (Super Computer); katta kompyuterlar (Mainframe Computer); mini kompyuterlar (Minicomputer); shaxsiy kompyuterlar (PC - Personal Computer); bloknot kompyuterlar (Notebook) mavjud.

Kompyuter virusi – bu o'lchami katta bo'limgan dastur yoki dastur kodidan iborat bo'lib, kompyuterda turli noxush amallarni bajarishga, masalan, boshqa dastur, hujjat yoki axborot tashish vositasining ma'lum bir qismiga o'ma-shib olib, ruxsat berilmagan o'zgartirishni amalga oshi-rishga mo'ljallab yozilgan dastur; uning asosiy turlari: dastur viruslari; yuklanuvchi viruslar; makroviruslar.

Kompyuter dasturi – kompyuter instruksiyalarining ketmaketligi. Kompyuter grafikasi – bu EHM yordamida ob'ektlar modellari va ularning tasvirlarini yaratish, saqlash va qayta ishlash demakdir.

Kompyuter konferensiyasi – muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining kompyuter tarmog'i orqali axborot almashinuvni. Kompyuter tarmoqlari – kompyuterlarda o'zaro axborot almashish imkoniyatini beruvchi qurilmalar majmui.

Kompyuterli modellashtirish – hodisa va jarayonlar-ning modelini kompyuterda ko'rish va o'rganish. Konfidensial axborot – maxfiy axborot darajasiga ega bo'lgan yopiq axborot. Konsentrator (HUB) – tarmoqda kompyuterlarni o'zaro axborot almashinuvini ta'minlovchi maxsus qurilma.

Kriptologiya — maqsadli xabarlarning maxfiyligini va haqiqiyigini ta'minlanishi lozim bo'lgan sirli aloqalar sohasi.

Kriptomustahkamlik — yomon niyatli shaxslarning o'z maqsadiga erisha olmasligi va kriptotahlilchilarning shifrlangan axborotni o'qiy olmasligi kafolati. Kriptotahlil — maqsadli kriptograflar tomonidan ishlab chiqilgan himoya tizimini ochish.

Ko'rsatkich — axborotlilikni saqlovchi minimal axborot-larning tarkibiy birligi. Lokal tarmoq — bir binoda yoki bir-biriga yaqin binolarda joylashgan kompyuterlarda o'zaro axborot almashish imkonini beradi va kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa birlashtiradi.

LMS - ta'limni boshqarish tizimlari, internet orqali masofaviy ta'limni amalga oshiradigan tizimlar.

Matematik ta'minot — avtomatlashtirilgan axborot tizimining elementi bo'lib, axborot tizimida vazifalar-ni hal etishda foydalaniladigan axborotlarni qayta ishlash algoritmi, modellari, matematik uslublari majmui.

Matematik model — o'rganilayotgan ob'ektning mate-matik formula yoki algoritm ko'rinishida ifodalangan harakteristikalari orasidagi funksional bog'lanish. 20

Ma'lumotlar bazasi (MB) — ob'ektlarning muayyan sinflarini tavsiflovchi axborot massivlarining majmui; kompyuterning uzoq, muddatli xotirasida saqlanayotgan berilganlar va ular ustida aniq, amallarni bajarishga imkon beradigan ma'lumotlar yig'indisi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) — ma'lumotlar bazasini yaratish va uni dolzarb holatda saqlab turishni amalga oshiradigan, shuningdek, turli foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan axborotlardan o'z maqsadlari uchun foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydigan dasturlar majmui; ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun maxsus yaratilgan dastur.

Ma'lumotlarni kiritish — ma'lumotni qayta ishlash yoki masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni va dasturni kompyuter xotirasiga kiritish.

Ma'lumotlarni kodlash – cheklangan to'plam element-laridan belgilangan tartib bo'yicha ma'lumotlarni tuzish jarayoni.

Ma'lumotlarni tartiblash – ma'lumotlar qiymati va formatini foydalanish uchun qulay holatga keltirish jarayoni.

Ma'lumotlarni uzatish – formal ko'rinishda ifoda-langan (belgilar yoki uzlusiz funksiyalar ko'rinishida) va EHM yordamida qayta ishlashga mo'ljallangan axborotni uzatish masalalarini o'z ichiga oluvchi elektr aloqa sohasi.

Ma'lumotlarni chegirish – axborotlar tizimida ko'rsa-tilgan shartni qanoatlantirmagan elementlarning ma'lumotlar bazasiga kiritmay qoldirish holati.

Ma'lumotlarni chiqarish – axborotni qayd qilish yoki ko'z bilan kuzatish uchun uni hisoblash mashinasidan chetki qurilmalar (masalan, alfavit-raqamli yozish qurilmasi, printer, display va boshqa)ga uzatish.

Mahalliy hisoblash tarmog'i – kompyuterlar, boshqa periferiya qurilmalari (printerlar, disk kontrollari va boshqalar) ning bog'lanishini ta'minlaydigan va ularga umumiylidik disk xotirasidan, periferiya qurilmalaridan birgalikda foydalanishga, ma'lumotlar bilan almashishga imkon beradigan apparat vositalari va algoritmlar to'plami.

Mintaqaviy tarmoq – biror tuman, viloyat yoki respub-lik miqyosidagi kompyuterlarni o'zida mujassamlash-tirgan tarmoq.

Model (lot. o'lchov, namuna, me'yor) – biror ob'ekt yoki ob'ektlar tizimining obrazi, namunasi yoki xususiyat-larining belgilangan guruhi.

Modellashtirish – bilish ob'ektlarini ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalarining modellarini yasash va o'rganish.

Modem – bu modulyatsiya va demodulyatsiya so'zlaridan olingan bo'lib, uzlusiz signallarni raqamli (modulyatsiya) va raqamli ma'lumotlarni uzlusiz (demodulyatsiya) signalga almashtirib beruvchi maxsus elektron qurilma.

Monitor (lot. eslatuvchi, tasvirlovchi) – axborotni kineskop ekranida sifatli aks ettirish uchun qo'llani-ladigan qurilma.

Multimedia (multimedia - ko'p vositallilik) – kompyu-terning axborotlarni rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar, hatto videofilmlar kabi turli xil ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyati.

Masofaviy ta'lif – masofada turib internet yordamida mahsus saylarga kirib, o'quv kontentlar yordamida fanlarni o'rganishning uslubi, O'rganuvchi unga mos vaqtda kirib amalga oshirishi mumkin.

Multimedia-texnologiya – kompyuter bilan matnli, grafik, audio va video axborot almashinuvini dasturiy-texnik tashkil etish.

Moodle o'quv platformasi-onlayn tarzda ta'lifni boshqarishni tashkil qilishga yordam qiluvchi tizim, masofaviy internet yordamida ishlaydi, fanlar bo'yicha kurslar yaratiladi, ularga ma'ruzalar, amaliy mashg'uotlar, test, glossariy va video-ma'ruzalar qo'yildi.

Moodleda axborot almashinuvi va muloqot-Moodle o'quv platformasida Forum, Chat orqali muloqot almashish mumkin. Bu yerda Forum elementini tashkil qilish imkoniyati bor.

Multimedia vositalari – bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlari, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Macromedia Flash dasturi-animatsiya yaratuvchi dastur, o'z ichiga Motion Tween ikki tomonlama harakat animatsiyasini, Motion Shape-bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish animatsiyasini hamda kadrma-kadr qo'lida animatsiyani bajarishni qamrab olgan hamda ularga vaqtinchalik shkala effektlari yordamida turli animatsiyalarni amalga oshirish kabi imkoniyatlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Norezident virus — to'laligicha bajarilayotgan fayl ichida saqlanadigan, maqsadga erishgandan so'ng operativ xotirada saqlanmaydiga virus Normallashtirish – iyerarxik yoki tarmoqli tuzilishga ega bo'lgan ma'lumotlarni relyatsion ko'rinishga o'tkazish jarayoni.

Operatsion tizim – kompyuter qurilmalarining boshqariladigan kompyuter dasturlari majmui; bu EHM zaxiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zarlo aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuv-chining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir.

Ob'ekt – o'ziga o'xshash narsalardan ajralib turadigan alohida olingan predmet.

Operatsiya (amal) – hisoblash mashinasi berilgan kattaliklar ustida dasturning biror komandasini bo'yicha bajariladigan qandaydir amal; bir ish joyida bajariladigan muayyan harakatlar majmui.

Optik tolali kabel – mahalliy hisoblash tarmog'ida foydalaniladigan eng yangi texnologiya bo'lib, bunda axborot eltuvchi yorug'lik nuri bo'ladi, u tarmoq tomonidan o'zgartiriladi va signal shaklini oladi. Optimal boshqarish – eng kam vaqt va mehnat yoki eng kam miqdordagi narsa va energiya sarflagan holda tizimni bir holatdan boshqa yangi holatga o'tkazish jarayoni.

Provayder – kompyuterlarning tarmoqqa ulanish va axborot almashishini tashkil qiladigan tashkilot. Revizor dasturlari – dastlab dastur va diskning tizimli sohasi haqidagi ma'lumotlarni xotiraga olib, so'ngra ularni dastlabkisi bilan solishtiradigan va mos kelmagan hollarda foydalanuvchiga ma'lum qiladigan virusga qarshi dasturlar.

Paketlar – ma'lumotlarning qismlarga bo'linishi. Paketli virus — bosh qismi paketli faylda joylshgan virus. Parol bilan arxivlash – begona foydalanuvchilar ochmasliklari uchun faylga parol qo'yib arxivlash.

Privivka — faylda viruslarnikidek iz qoldiruvchi dastur

Robot – antronomorf (insonga o'xshash) harakatlar qiluvchi mashina.

Robot - gumanoid- ko'rinishi odamga o'hshash robotlar.

Rezident virus — operativ xotirada saqlanadigan virus.

SMS(CMS inglizchasi) - ta'limni content orqali boshqarish tizimi.

Snagit dasturi-video yaratuvchi va ekranni qamrab oluvchi dastur.

Server – tarmoq ishini ta'minlovchi va so'rovga ishlov beruvchi maxsus qurilma yoki kompyuter.

Sahifa (sayt) – grafika va multimedia elementlari joylashtirilgan gipermedia hujjatlari ko'rinishidagi mantiqan butun axborot.

Standart dasturlar kutubxonasi – oldindan tayyorlangan va kompyuter xotirasida saqlanadigan maxsus qism-dasturlar to'plami.

SMS-kontent orqali ta'limni boshqaruvchi onlayn internetda ishlovchi tizim. Unga WordPress misol bo'ladi, uning yordamida saytlar yaratiladi.

Sun'iy tillar – tabiiy tillardan farq qilib, xalqaro munosabatlar uchun maqsadga yo'naltirilgan holda konst-ruksiyalanuvchi, axborotni EHM yordamida avtomatik qayta ishlash – dasturlashtirish tillari, fan va texnikaning ma'lum sohasidagi axborotni yozish (axborot tili) va boshqa tillarni (esperanto, interling kabi) o'z ichiga oladi.

Suniy intellekt – insonning ba'zi intellektual fao-liyatini, mantiqiy, analitik tafakkurini modellash-tiruvchi kibernetik tizimlarning shartli belgisi bo'lib, aqliy hatti-harakatlarga nisbatan kompyuter tizimining qobiliyati tushuniladi.

Snagit- video yaratuvchidastur hamda ekranni ham qamrab olib, uning rasmini olishga yordam qiluvchi imkoniyati bor.

Taqdimot - bir nechta slaydlardan tashkil topgan fayl, unda rasm, matn va audio hamda videolar ham bo'lishi mumkin.

Taqdimot yaratuvchi Power Point dasturi-taqdimot yaratuvchi Offis dasturlarining biri hisoblamadi, Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan.

Tarmoqli virus — kompyuter tarmoqlarida tarqaluvchi virus.

Test yaratuvchi dasturlar- test yaratishga mo'ljallangan dasturlar, ular offlayn va onlayn tarzda ishlatalishiga qarab yaratilgan. Bularga MyTest, Easy Quizy, Test, MyTest Pro, HotPotatoes kabi kompyuter dasturlari kiradi.

Tarmoqlararo ekran — umumiy tarmoqni ikki qismga ajratib, tarmoqlararo himoya vazifasini o'tovchi va ma'lumotlarni chegaradan o'tish shartlarini amalga oshiradigan qoidalar to'plamini o'zida saqlovchi tizim.

Tashqi xotira – bitta yoki bir nechta dasturni bajarishda hisoblash tizimi tarkibidagi juda katta hajmli axborotni uzoq muddat saqlash va undan bir necha marta foydalanish uchun mo'ljallangan xotira qurilmalarining kompleksi.

Telekommunikatsiya – bu kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Teskari alaqa – to'g'ri kanaldagi ma'lumotlarni uzatish harakteriga teskari kanal orqali ta'sir etish. Texnik ta'minot – avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining elementi bo'lib, axborot tizimi ishi uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksi, shuningdek, ushbu vositalar va texnik jarayonlarga tegishli hujjatlardir.

Texnologiya – san'at, mahorat, bilish degan ma'nolarni bildiradi (bu esa jarayondan boshqa narsa emas), ya'ni mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan xom-ashyo, material yoki yarim tayyor mahsulot shakli, xususiyati, holatining o'zgarishi, uni qayta ishlash, tayyorlash usullarining majmui bo'lib, bu biror bir ishni yuqori darajada uddalash degani.

Tizim (sistema) – yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zi-da ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsatadigan bir necha turdag'i elementlar, qismlar majmui.

Tizimni boshqarish – tizimni tashkil etuvchi element-larga nisbatan amalga oshiriladigan maqsadga yo‘nalti-rilgan ta’sir.

Tizimli dasturiy ta’minot – bu operatsion tizimlar, servis dasturlar, dasturlashtirish tillari translyator-lari, texnik xizmat dasturlari bo‘lib, kompyuterda ax-borotni qayta ishlash jarayonini tashkil etadi va amaliy dasturlar uchun me’yordagi ish muhitini ta’minlaydi.

Tizimni himoyalash – tizim dasturlari va ma’lumotlari-ga ruxsatsiz kirishdan yoki uning ishiga tasodifan ara-lashishdan saqlovchi chora-tadbirlarni o’tkazish jarayoni.

Uskunaviy dastur vositalari – ma’lum bir yo‘nalish-dagi masalalarni yechishga mo‘ljallangan dastur qobiqlari. Fag — zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlab, faylna oldingi holatiga qataruvchi dastur.

Fayl – xotira qurilmalarida saqlanuvchi ma’lumotlar-ning bir qismi, boshqacha aytganda, ma’lum bir ma’lumot saqlanuvchi diskning nomlangan sohasi. Fayl viruslar — *.com, *.exe kengaytmali fayllarni zararlovchi virus.

Faksimil aloqa – muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtiroychilarining, ularning geografik joylashuvidan qat’iy nazar, faks apparatlaridan foydalangan holda hujjatlarni o‘qish va uning tasvirini kommunikatsiya kanalining ikkinchi uchida qayta tiklab olish hisobiga qarorlar qabul qilishi.

Fizik model – tabiatni va geometrik tuzilishi asl nusxa-dagidek bo‘lib, miqdor jihatdan undan farq qiladigan model.

Filtr — viruslarnikiga xos harakatlarni topuvchi dastur.

Filtrlash – ma’lumotlarning aniq to‘plamga taalluqli-ligini tekshirish.

Filtr dasturlar yoki rezident dasturlar – viruslar tomonidan zararni ko‘paytirish va ziyon yetkazish mahsadida operatsion tizimga qilinayotgan murojaatlarni ushlab qolish va ular haqidagi foydalanuvchiga ma’lum qilish vazifasini bajaruvchi virusga qarshi dasturlar.

Foydalanuvchi interfeysi – berilgan masalaga mos interfeysni tanlash.

Foydalanuvchi muhiti – interfeys tushunchasining boshqacha nomlanishi.

Xabar – axborotning biror moddiy ko'rinishda mujassamlangan shakli.

Haqer – kompyuter tizimlarining mavjud barcha imkoniyatlarini aniqlashga qodir bo'lgan yuqori malakali dasturlovchi.

Xotira qurilmasi – EHMning bir qismi yoki avtomatik rostlash va boshqarish tizimlarida, telemexanikada, dastur bilan boshqariluvchi agregatlarda asosan kod shaklida berilgan axborotni yozish, saqlash va eshittirish uchun qo'llaniladigan mustaqil qurilma.

Xost-kompyuter – kompyuter tarmog'idagi fayllarga va kompyuter zaxiralariga kirish funksiyalarini bajaruvchi kompyuter.

Shaxsiy kompyuter – bu hammaboplrik va qo'llashda universallik talablarini qoniqtiruvchi, bir kishi foydalanadigan mikro-EHMdir.

Shifr – elementlari va kodlash tartibi cheklangan shaxslargagina ma'lum bo'lgan kod.

Shifrlangan ma'lumot – kriptografik himoya usuli qo'llanilgan ma'lumot. Shifrlash – ma'lumotlarni maxsus algoritm bo'yicha o'zgartirib, shifrlangan matnni yaratish jarayoni.

Shlyuz – bayonnomani bir turdag'i muhitdan ikkinchi turdag'i muhitga o'tkazuvchi tarmoq qurilmasi.

SMART-aqilli degani bo'lib, eng qulay iqtisod namunalarinin atala boshlab, bu termin asta-asta kirib keldi.

SMART ta'lim- aqilli ta'limni SMART o'quv qo'llanma yoki SMART darslik yordamida amalga oshirishmumkin yoki SMART doska orqali o'qitishni tushunamiz.

SMART ta'lif deganda onlayn tarzda o'qitishni ham tushuniladi, elektron darsliklar yordamida darslarni tashkillashni ham tushunish mumkin. SMART ta'lifni zoom bulutli platformasida onlayn seminar shaklida ham yoki SMART o'quv qo'llanmalar yordamida tashkil qilishni ham tushuniladi.

Elektron darslik yaratuvchi dasturlar-elektron darslikni Front Page, SunRavBookOffice dasturlarida yaratiladi.

Ekspert tizimlar – bu ayrim mavzu sohalarida bilimlarni to'plash va qo'llash, uyuşhtirish usullari hamda vositalari majmui bo'lib, xulosa chiqarish qoida va mexanizmlari yig'indisiga ega bo'lgan bilimlar bazasini o'z ichiga olgan suniy intellekt tizimidir.

Ekspert – bu, aniq muammo sohada samarali yechim va qarorlarni topa oluvchi mutaxassis.

Elektron aloqa – axborot tarmoqlari orqali foydala-nuvchilarga xatlarni yetkazishni ta'minlashning muhim tarmoqli ko'rinishi.

Elektron ofis – muammo soha vazifalarini kompleks amalga oshirishni ta'minlovchi, ixtisoslashtirilgan dasturlar va axborot texnologiyalarini o'zi ishlab chiqara oluvchi amaliy dasturlarning integratsiyalangan loyiha-lari mavjudligini ko'zda tutadi.

Elektron pochta (E-mail) – kompyuterlardan tarmoqda foydalanishga asoslangan bo'lib, foydalanuvchiga tarmoq bo'ylab o'zining sheriklariga xabar yuborish, olish va saqlash imkoniyatini beradi.

Elektron hisoblash mashinasi (EHM) – bu hisoblash va axborot vazifalarini hal etish jarayonida axborotni avtomatik qayta ishlash uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksidir.

Yaxlitlik — boshlang'ich ko'rinishda bo'lishligi va ruxsatsiz o'zgartirishlar qilinmaganligi kafolati.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari – mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini tashkil qilishga imkon beradigan dasturlar.

Qaror qabul qilish – vaziyatni tahlil qilish, maqsad-larni aniqlash, bu maqsadga erishish dasturini ishlab chiqishga asoslangan boshqaruv ob'ektiga aniq maqsadga qaratilgan ta'sir etish hatti-harakati.

Hisoblash texnikasi – hisoblash jarayonlarini hamda axborotmantiqiy masalalarni yechishni mexanizatsiya-lashtirish va avtomatlashtirish vositalari majmui.

Hisoblash mashinasi - axborotlarni qayta ishslash (hisob) jaryonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish-ga mo'ljallangan qurilma yoki qurilmalar majmui.

Hujjat – bu ma'lum bir qoidaga ko'ra rasmiylash-tirilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan qog'oz, ovoz yoki elektron shaklida aks ettirilgan axborot yoki mustaqil ahamiyatga ega axborotlarning tarkibiy birligi.

Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Hujjat aylanishi – hujjatlarni yaratish, izohlash, uzatish, qabul qilish va arxivlashtirish, shuningdek ularning ijrosini nazorat qilish hamda ularni ruxsatsiz foydalanishdan himoyalash tizimidir.

Yunusova Gulshod(a) Nazihovna – Namangan Davlat Universiteti “Informatika” kafedrasini professori, ph.f.d., 1989 yildan buyon Namangan Davlat Universitetida yosh avlodga “EHM va dasturlashtirish”, “Informatika”, “Informatsion texnologiyalar”, “Dasturlash asoslari”, “Axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari”, “Sohada axborot texnologiyalarini qo’llanilishi”, “Fizik jarayonlarni modellashtirish”, “Kompyuterning fizik asoslari”, “Algoritmlar va berilganlar strukturasi”. Namangan Davlat Universitetining gertsen nomli Pedagogika Universiteti bilan qo’shma dasturi bo'yicha yoshlarga “Beilganlar bazasini boshqarish tizimlari”, “Kompyuterning arhitekturasi”, “Musiqali kompyuter texnologiyalari”, Namangan Davlat Universitetining Ural Universitetining birqalidagi qo’shma dasturi asosida “Meditisina informatikasi” fanlari bo'yicha saboqlar berdi va o’qitib kelmoqda. Jami ilmiy va ilmiyuslubiy ishlarning muallifi, ohirgi uch yilda esa 30 ta ilmiy maqolalar va 27 ta uslubiy ishlar, 10 ta ilmiy monografiyalar muallifi.

“Yangi avlod axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlari muhitida uzuksiz STEAM ta’limini takomillashtirish” mavzusida DSc ilmiy darajasini olishga ilmiy tadqiqot olib bormoqda va bu soha bo'yicha 30 ta maqolalar, 6 ta monografiyalar hamda 5ta uslubiy qo’llanmalar chop etdi. 2 ta o’quv qo’llanmasi O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yilning 17 iyuldagи 314 buyrug’iga asosan nashr etilib, qo’llashga taqdim etilgan.



G.N. Yunusova STEAM ta’limini ilk bor O’zbekistonda rivojlanishiga va uni fan sifatida o’qitilishiga ravnaq qo’shan olma ayollardan bo’lib, “Fizikaning elektronikasi va amaliy matematikaning tadbig’I robototexnikaga kirish; arduino platasi”, “O’zlashtirilishi qiyin bo’lgan mavzularni axborot texnologiyalari muhitida vizuallashtirib virtual o’qitish”, “Google Apps Cloud Platformalari va ulardan ta’limda foydalanish metodikasi”, “Axborot texnologiyalari fanida zamonaviy dasturiy vositalarda yangi avlod ta’lim resurslarini va saytlarini yaratish”, “Chiziqli tenglamalar sistemasini MatCad yordamida yechish”, “O’zlashtirilishi qiyin bo’lgan mavzularni axborot texnologiyalari muhitida vizuallashtirib virtual o’qitish”, “Axborot texnologiyalari fanida zamonaviy dasturiy vositalar”, “Yangi avlod ta’lim resurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturiy vositalar”, “Raqamli texnologiyalar va kompyuter dasturlari muhitida bolalarni rivojlantirish uchun uzuksiz steam ta’limini kuchaytirish(dasturlashtirish va robototexnika misolida)”, “Uzuksiz ta’limda yangi avlod axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlari muhitida bolalarni rivojlantirish uchun STEAM ta’limini kuchaytirish metodikasi” nomli monografiyalar hamda o’quvchilar bilan hamkorlikda “Kompyuter +hotira+ diqqat+mantiqiy tafakkur” EHM dasturini 2018 yilda, “Kompyuter+3ta til alifbosи(o’zbek, ruz, ingliz)” EHM dasturini hamda 2020 yilda, “Ixtirochi bolajon” EHM dasturini 2021 yilda yaratdi hamda yakka mualliflikda Steam ta’lim+robototexnika(arduino+c++) “qora chiziq bo’ylab robotni harakat qilishi” nomli dasturni 2022 yilda; Rubrika: Steam ta’lim+Scratch+Lego konstrukturlash rubrikasi bo'yicha: «Rally mashinada poyga» kompyuter o’yni, 2022 yilda “Steam va mantiq : “Tosh, qaych, qog’oz” pythonda ehm o’yni”, Stearm+Matematika+(Python+C++ +Delfi+JavaScript): “O’ylangan sonni top!” 3 ta tilda (o’zbek, rus, ingliz) kompyuter o’ynlari yaratildi va undan tashqari sayt yaratishga doir dasturlar tuzilgan va ularga O’zbekiston mulk agentligidanmualliflik guvohnomalari olingan. “Front end (html, css, java script). Back end (php, mysql, java react dasturlarda) ta’lim platformularni yaratish” chm uchun dastur. Bolalar uchun “Bolajon” nomli sayt, Statistik fizikadan wordpress tizimida PHPda dasturlashni q’ollab quvatlovchi saytlar talaba va magsitrlar bilan birqalikda yaratilgan.